

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI**

SAYYORA RUSTAMBAYEVNA TURAYEVA

**O‘ZBEKISTON HUDUDIDA TOG‘-KON ISHLARI,
METALLURGIYA TARIXI (XVI – XIX ASRNING 70-YILLARI)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Contents of abstract of the doctor of dissertation
Оглавление автореферата докторской диссертации

Sayyora Rustambayevna Turayeva

О‘zbekiston hududida tog‘-kon ishlari, metallurgiya tarixi

(XVI - XIX asrning 70-yillari).....3

Сайёра Рустамбаевна Тураева

История горного дела и металлургии на территории Узбекистана

(XVI - 70-е годы XIX в.).....34

Sayyora Rustambayevna Turayeva

History of mining and metallurgy on the territory of Uzbekistan (16th - 70s of the
19th centuries) 67

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works72

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI**

SAYYORA RUSTAMBAYEVNA TURAYEVA

**O‘ZBEKISTON HUDUDIDA TOG‘-KON ISHLARI,
METALLURGIYA TARIXI (XVI – XIX ASRNING 70-YILLARI)**

07.00.01. – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
28.04.2016/B2016.2.Tar330 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ik-tarix.tdpu.uz) va “ZiyoNet” (www.ziynet.uz) axborot ta’lim tarmog‘iga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Gulchehra Azizovna Agzamova tarix fanlari
doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nigora Azadovna Egamberdiyeva
tarix fanlari doktori, dotsent

Dilorom Yunusovna Yusupova
tarix fanlari doktori, professor, akademik
Azimxuja Muzafarovich Ataxodjeyev
tarix fanlari doktori

Yetakchi tashkilot

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalarni beruvchi DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil _____ soat dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-76-51; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(+99871) 276-76-51; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “__” _____ kuni tarqatildi. (2024-yil “__” _____ dagi ___- raqamli reyestr bayonnomasi).

A.K. Kirgizbayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, tarix fanlari doktori, professor

S.B. Tilabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, tarix fanlari nomzodi

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonda rivojlanib borayotgan sanoat tarmoqlari taraqqiyoti tabiiy qazilma ma'danlaridan foydalanishga bog'liq bo'lib, bunday zaxiraga ega hududlar barcha tarixiy davrlarda turli davlatlarning iqtisodiy-siyosiy, harbiy strategik manfaatlari to'qnashuvini yuzaga keltirgan. Markaziy Osiyo hududi Yevroosiyoning iqtisodiy, harbiy-siyosiy, etnomadaniy va ma'naviy aloqalari tutashgan makon sifatida muhim o'rin tutadi. Qadimdan Turkiston xonliklari hududlarida tog'-kon ishi bilan shug'ullanilgan. Bu soha vakillari jahonga o'z tajribalarini ulashganlar va ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan mazkur o'lkaning taraqqiyoti dunyo xalqlari tarixi bilan uzviylikda kechgan. Hozirda ham xalqaro miqyosdagi qazilma boyliklari bilan bog'liq bir qancha tashkilotlar mavjud bo'lib, ulardan Xalqaro tog'-kon Kongressi O'zbekiston bilan mustahkam aloqalar olib boradi. U yerdagi metallurglarning dunyo bo'yicha Xalqaro metallurglar assotsiatsiyasi bilan hamkorlikka intilayotgani esa integratsiyalashuv jarayonining yorqin namoyon bo'lishidir.

Jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalarida Markaziy Osiyo tarixi, tabiiy hududiy imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan maxsus loyihalar ustida ish olib borilmoqda. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida tog'-kon ishi va ular xomashyosini qayta ishlash, mineral resurslar xalqaro savdosi katta rol o'ynagan. Shu jihatdan Turkiston xonliklari tog'-kon ishini tadqiq etish tarixiy voqelikni lokal (tor) doirada emas, mintaqa va mintaqalararo darajada ko'rish imkonini beradi. Turkiston o'lkasidagi xonliklar tog'-kon ishini o'rganish orqali aholining tog'-kon xomashyosi bilan bog'liq hunarmandchilik, xalqaro savdo, mintaqadagi bu borada integratsiya jarayonlarini chuqur va har tomonlama baholash mumkin.

Shuningdek, Yangi O'zbekistonda geologiya sohasini rivojlantirish va uni sanoat taraqqiyotiga xizmat qildirishga katta ahamiyat berilmoqda. Dunyoda tabiiy foydali qazilma boyliklarining tasdiqlangan zaxira va istiqbolli rudalar miqyosiga katta e'tibor bilan qaralib, O'zbekiston bu borada nafaqat MDH davlatlarida, balki butun dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston tarixiy davrlarda tabiiy foydali qazilma ma'danlari qazib olish, tog'-kon ishi tarixini o'rganish, jahon tarixida: "Turkiston xonliklari qoloq, ilm-fan yangiliklari, tabiiy ma'danlarni qayta ishlash bilan notanish edi", degan qarashlarni bartaraf etish bilan birga, XVI–XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan taraqqiyot darajasini, tabiiy ma'danlar turlarini farqlash va foydalanish ko'lamining holati haqidagi qarashlarning ilmiy yechimini beradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4401-son "Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganishni yanada takomillashtirish va 2020–2021-yillarda mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 2020-yil 8-iyunda PQ-4740 sonli "Davlat Geologiya va mineral resurslar

qo‘mitasi tizimida Geologiya fanlari Universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹, 2021-yil 21-apreldagi PQ-5083-sonli “Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xomashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori², O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi 297-son “O‘zbekiston Respublikasi mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. XVI–XX asr boshlarigacha Turkiston xonliklari tarixi, tog‘-konchilik ishlari va metallurgiya tarixi, Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati, mintaqada, sanoat tarixida yuz bergan islohotchilik tarixiy ildizlariga oid ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markaz va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Ogayo Universiti (AQSH), Rossiya Federatsiyasining fan va ta‘lim vazirligi ilmiy markazi, Sankt-Peterburgdagi “Oliy iqtisodiyot maktabi” Milliy tadqiqot universiteti, Yekaterinburgdagi Ural federal universiteti (Rossiya), Tojikiston Fanlar akademiyasi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti (Tojikiston), Sharqiy Finlyandiya universiteti (Joensuu, Finlandiya), Gaia Group Oy (Xelsinki, Finlandiya), Qozog‘iston tog‘-kon fanlari milliy akademiyasi va Satpayev nomidagi universitet (Qozog‘iston), Zoï Environment Network (Jeneva, Shveysariya), Rossiysko-Tadjikskiy (Российско-Таджикский славянский) universiteti, Kyushu universiteti (Yaponiya), Qirg‘iziston Milliy Fanlar akademiyasi qoshidagi M.M.Adishyev nomidagi Geologiya instituti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya va Tarix institutlari (O‘zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Turkiston xonliklari tog‘-kon ishi, metallurgiya tarixiga oid ilmiy izlanishlar bo‘yicha qator, quyidagi natijalar olindi. Jumladan: XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligining siyosiy tarixi, geografik, iqtisodiy imkoniyatlari, Turkiston

¹ 2020-yil 8-iyunda “Davlat Geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi tizimida Geologiya fanlari Universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ- 4740 son. // Lex.uz.

² “Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xomashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 21-apreldagi PQ-5083- sonli qarori //Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz). – 2021. – 22 apr.

³Dissertatsiya bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <http://www.hse.ru>, <http://anrt.tj/ru>, <http://ie.kz>, <http://sdu.edu.kz>, Asia-Plus Tajikistan:<http://www.news.tj>., mining-related conflicts – ZOI, www.mining-metals.kz; Satbayev University <https://official.satbayev.university> >mining, <https://zoinet.org/>, <https://asiaweek.kyushu-u.ac.jp/en>, <http://tokyo.as.jp/en>, <http://geol.kg/>.

xonliklarining o‘zaro savdo aloqalarida tog‘-kon xomahsyo maxsulotlarining o‘rni va xonlikning xo‘jalik munosabatlarini ko‘rsatib bergan (Ogayo Universiti AQSH); “Turkistonning tabiiy boyliklari” loyhasi doirasida Turkiston general-gubernatorligi hududidagi tabiiy boyliklarni o‘rganish bo‘yicha Orol-Kaspiy, Amudaryo bo‘ylab tashkil etilgan ekspeditsiyalar, mintaqaning qulay iqlimi va qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon muhandislarining ma‘lumotlari, ko‘mir qazib olish, suv yo‘llari shart-sharoitlari kabi masalalar ochib berilgan (Rossiya Federatsiyasining fan va ta‘lim vazirligi ilmiy markazi, Sankt-Peterburgdagi “Oliy iqtisodiyot maktabi” Milliy tadqiqot universiteti, Yekaterinburgdagi Ural federal universiteti); Markaziy Osiyoda XV–XX asr boshlarida oltin qazib olish sanoati va pul-tovar munosabatlari, Buxoro, Qo‘qon, Xiva xonliklarida oltin metall xomashyosi bilan bog‘liq hunarmandchilik, zargarlik buyumlari, oltin qazib olinadigan yirik markazlar ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Xonliklardagi oltin savdosi, uning ahamiyati va taraqqiyoti, mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni tahlil etilgan (Tojikiston Fanlar akademiyasi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti); BMTning 2012-yil iyundagi Rio de Janeyroda (Braziliya) o‘tkazilgan konferensiyasi ishtirokchi davlatlarning dunyo mamlakatlarini ijtimoiy integratsiyasi va kambag‘allikni kamaytirish g‘oyasi ostida tog‘-kon sohasini rivojlantirish bo‘yicha Markaziy Osiyoda tog‘-kon sanoati sohasida tog‘-kon mojarolarining oldini olish hamda ekologik xavfsizlikni tahlil qilishga bag‘ishlangan ilmiy loyiha doirasida Markaziy Osiyo davlatlarining mineral xomashyo boyliklari, ular joylashgan tog‘li mintaqalar – Chotqol, Qurama tog‘ tizmalaridagi ma‘danli konlari hamda zaxirasi va qazib olishda ekologik xavfsizlik yuzasidan ilmiy tahlillar olib borilgan. XVI–XIX asrlarda faol ish olib borilgan Farg‘ona vodiysi hududidagi kon va ularning bugungi kunda ham chuqur qatlamlaridan uran olish, vodiy hududiga yaqin, Haydarkon simob konining ekologik xavfini bartaraf etishga oid zamonaviy texnologiyalar tatbiqi borasida e‘tiborli xulosalar berilgan (Gaia Group Oy (Xelsinki, Finlandiya), Sharqiy Finlyandiya universiteti (Joensuu, Finlandiya); “Qozog‘istonda tog‘-kon ishi tarixiga oid tadqiqotlar”ga bag‘ishlangan ilmiy loyiha doirasida XVIII–XIX asr Qo‘qon xonligi hududlaridagi tog‘-kon ishi, metallurgiya sohasi bo‘yicha tadqiqotlarda Qoratog‘ hududidagi 30 ga yaqin o‘rta asr metall qazib olish va ruda eritish markazlari, metallga ishlov berish bo‘yicha tajribalar, metallsozlikning harbiy sohada qo‘llanilishi, hududda qazib olingan metallni Rossiyaning Ural tog‘laridan olingan metall bilan raqobatbardoshligi, o‘zaro savdo-sotiq va xo‘jalik munosabatlari ko‘rsatib o‘tilgan (Qozog‘iston tog‘-kon fanlari milliy akademiyasi va Satpayev nomidagi universiteti; Xalqaro oltita tashkilotning hamkorligidagi⁴ “Atrof-muhitni muhofaza qilish va xavfsizlik tashkiloti” (ENVSEC) tashabbusi faoliyati asosida Markaziy Osiyodagi Haydarkon simob koni atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish borasida zamonaviy filtirlash texnologiyalarini jalb etish

⁴ Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Markaziy va Sharqiy Yevropa mintaqaviy ekologik markazi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha Dasturi va NATO sherik hamkor sifatida.

borasida o'tmish va hozirgi zamondagi ekologik vaziyat tahlil qilingan (Zoï Environment Network (Jeneva, Shveytsariya); XIX asrda O'rta Osiyoda ko'mir va neft qazib olishni o'rganish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda ilk bor ko'mir qazib olingan davrlarda Qo'qon xonligi va Xo'jand atrofida ko'mirni tashish tuya va otlarga ortilgan holda amalga oshirilganligi, ko'mir qazib olish va uning savdosi temir yo'llar qurilgandan keyin jiddiy taraqqiy etganligi, ko'mir konlari Isfara, O'ratepa va Zarafshonning yuqori oqimida ham topilganligi haqida ma'lumotlar beriladi. Neft konlari esa Transkaspiy mintaqasi va Farg'onada joylashgan edi. Rossiya sanoatchilari tomonidan O'rta Osiyodagi neft zaxiralarini o'zlashtirish Qo'qon xonligi davrida amalga oshirilganligi tahlil qilingan (Rossiysko-Tadjikskiy (Российско-Таджикский славянский) universiteti); O'tmishdagi O'rta Osiyo tog'-kon ma'danli konlarni boyitish, chiqindilarini qayta ishlash va samarali foydalanish texnologiyalari bo'yicha tahlillar olib borilgan (Kyushu universiteti (Yaponiya); XIX asrda Chotqol tog' tizmasidagi konlardan olingan xomashyoning iqtisodiyotdagi o'rni ochib berilgan (Qirg'iziston Milliy Fanlar akademiyasi qoshidagi M.M.Adishyev nomidagi Geologiya instituti).

Dunyo miqyosida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: Turkiston xonliklarining tashqi savdo aloqalari; qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq va xo'jalik munosabatlari; iqtisodiyotda konchilik mahsulotlarining o'rni va ahamiyati; ushbu davlatlarda konchilikda keng qo'llanilgan qullar mehnati; konchilikning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liqligini asoslab berish; markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi ushbu davlatlar tarixining yoritilishi shular jumlasidan hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Mavjud tarixiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining so'nggi o'rta asrlarda tog'-kon ishlari va metallurgiya tarixiga doir kompleks tadqiqot bugunga qadar amalga oshirilmagan. Lekin katta hajmdagi ilmiy adabiyotlarda mavzuning u yoki bu jihatlari va davrlari o'z aksini topgan bo'lib, ular hududiy va muammoviy jihatdan beshta guruhga bo'linadi:

Buxoro, Xiva, Qo'qon xonligining hududidagi tog'-kon ishlari tarixi kam o'rganilgan mavzu bo'lib, mavjud ishlarining aksariyati Turkistonning Rossiya, Eron, Xitoy, Hindiston, Usmoniylar davlati bilan xalqaro savdosi, hunarmandchiligiga oid siyosiy, iqtisodiy, tashqi aloqalar tarixini o'rganishga bag'ishlangan, ba'zi ishlarda xonliklarning tabiiy boyliklariga doir ma'lumotlar keltirilgan. Ammo bunday tadqiqotlar umumiy tarixiga bag'ishlangan bo'lib, mamlakatdagi konchilik ishlari, metallurgiya sohasi e'tibordan chetda qolgan. Bu holat mazkur sohaning iqtisodiyotdagi o'rni va salmog'iga oid ko'plab savollarning ochiq qolishiga sabab bo'lgan.

Turkistonning foydali qazilmalarini o'rganishga, o'lkani geologik tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlarda tog'-kon ishlari, metallurgiyaga yanada katta e'tibor qaratib, uni yuqori bosqichga ko'tarish, o'lkaning tabiiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishga urinish harakatlari yaqqol kuzatiladi.

Turkiston xonliklari hududining tabiiy geologik imkoniyatlarini o'rganish va Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkiston o'lkasining tabiiy foydali qazilmalariga, tog'-kon ishi holatiga bag'ishangan ishlarda mavzuga aloqador muhim ma'lumotlar ko'zga tashlanadi. Ushbu ma'lumotlar asosan imperiya armiyasining harbiylari tomonidan yozilgan bo'lib, ular masalaga bir yoqlama yondashuvdan imperiya manfaatlari nuqtayi nazaridan fikr bildirilgan. Zero, an'anaviy tog'-kon ishlari va uning ilg'or jihatlari e'tibordan chetda qolgan edi. Bu davrda yaratilgan nashrlar Farg'ona vodiysida neft sanoatining shakllanish va rivojlanishi masalalarini tanqidiy o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Turkiston xonliklarida tog'-kon ishi holati va rivojlanish bosqichlari yuzasidan tegishli xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Xorijda nashr etilgan asar va maqolalarda Turkistonning umumiy tarixi masalalari asnosida, hududning tabiiy foydali qazilmalari, aholi turmush tarzida, xo'jalik yuritishiga oid mashg'ulotlarda konchilik bilan shug'ullanuvchilar hayotiga oid ma'lumotlar ham berilgan.

Amalga oshirilgan tarixshunoslik tahlili XVI–XIX asrning 70-yillarigacha Turkiston xonliklarining tog'-kon ishi tarixini kompleks tarzda tadqiq qilish ilmiy-nazariy ham ilmiy-amaliy jihatdan zarur ekanligini ko'rsatadi (Tadqiqotning o'rganilish darajasi haqida dissertatsiyaning 1-bobida batafsil ma'lumot berilgan).

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq I-FA-2019-25 “Xorazm shaharlarining tarixi, madaniy meroslari, obidalari va san'at asarlarining tadqiqotlari asosida SMART texnologiyalarini yaratish” (2019-2021 y.) nomli innovatsion va PZ-20170928402 “O'zbekistonning o'rta asrlar tarixi rasmiy hujjatlarda: muammoli jihatlar, talqin va tahlil (VII–XIX asr birinchi yarmi)” (2018–2020) nomli amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. XVI–XIX asrning 70-yillarigacha Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklaridagi tog'-kon ishi, ma'danlar qazib olishning tarixiy an'ana va usullarini aniqlash hamda metall bilan bog'liq hunarmandchilik sohasini xomashyo bilan ta'minlagan mavjud kon turlari va konchilik mahsulotlari savdosi hajmini aniqlash orqali Turkiston xonliklarining iqtisodiy, savdo imkoniyatlarini yoritib berish.

Tadqiqotning vazifalari:

fors va turkiy tillaridagi narrativ (yozma) asarlarni rasmiy arxiv hujjatlarini hamda mahalliy muarrixlar yozgan manbalar bilan qiyoslash asosida mavzuga doir ma'lumotlarning haqqoniyligi va xolisligini aniqlash, shu orqali ular bilan ishlash yuzasidan amaliy xulosalar berish;

Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida tog'-kon ishi va metallurgiya sohalari taraqqiyoti bosqichlari dinamikasini tahlil etish, mavjud an'ana va yuz bergan o'zgarishlarni ochib berish;

Turkiston xonliklarida tog‘- kon ishi, metallurgiyaning o‘ziga xos jihatlari va ularga ta’sir etgan muhim omillarni aniqlash va ko‘rsatib berish;

konchilik ishida huquqiy asoslar va bu boradagi o‘zgarishlarni yoritish;

tog‘-kon mahsulotlari bilan amalga oshirilgan xalqaro savdo munosabatlarida Turkiston xonliklarining ishtirokini tizimli o‘rganish;

XVI–XIX asrning 70-yillarida Buxoro, Xiva Qo‘qon xonliklaridagi tog‘-konchilik ishining mintaqa iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni yuzasidan xulosalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida XVI–XIX asrning 70-yillaridagi Turkiston xonliklarining tog‘-kon ishlari tarixi olingan.

Tadqiqotning predmeti. Tadqiqot predmeti sifatida Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklarida yerosti ma’danlarini qazib chiqarish va ishlov berish, tog‘-kon ishlaridagi an’ana va usullar, metallurgiya sohasining holati, qazilma boyliklari xomashyosi bilan bog‘liq savdoning yuzaga kelishida tarixiy va ijtimoiy shart-sharoit, tog‘-kon ishlarining tashkil etilishi, huquqiy asoslarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy, tarixiy tizimlashtirish, mantiqiy tahlil, muammoviy-xronologik, kontent tahlil, diaxron va sinxron, germenevtika usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari: Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari tog‘-kon ishlari an’analariga, siyosiy, iqtisodiy va turli migratsion sabablarga bog‘liq holda kechganligi, XVI asrgacha ham Turkistonda konchilik ishlari yo‘lga qo‘yilganligi, “hunarmandchilik uchun xomashyoning barcha qismi tashqi savdo orqali kirib keladi” degan qarashlarning asossizligi isbotlangan;

Turkiston xonliklari hududida aholi foydalangan asosiy tabiiy ma’danlar va ularning konlari joylashgan 287 ga yaqin tarixiy manzillari aniqlandi hamda mahalliy konchi ustalar 280 ta tabiiy ma’danni farqlab, ajrata olganligi va 8 ta ma’danni amaliy hosil qilish usullarini bilganligi, “mahalliy konchi ustalar ilmiy bilimsiz” degan qarashlarning asossizligi isbotlangan;

xonliklardagi tog‘-kon ishi, hududda maxsus kon ishi bo‘yicha ta’lim muassasasi va boshqarmasi mavjud bo‘lmagan holda zaruriy ma’danlar mahalliy konchilar tomonidan keng miqyosda qazib olish va qayta ishlash yo‘lga qo‘yilganligi asoslangan;

Turkiston xonliklarida konlar davlat mulki bo‘lib, konlarni xavfsizligini nazorat etish uchun alohida xizmat joriy etilganligi, hukmdor tomonidan ayrim ma’danlarni to‘plashda umumiy mehnat majburiyati bo‘lganligi, konlarni ijaraga berishning huquqiy asoslari, konlar daromadidan xazinaga ijarachilar “xums” singari soliq to‘laganligi dalillangan;

hukmdorlar tog‘-kon ishini rivojlantirish uchun tashqi integratsion jarayonlarga kirishishga, ayrim ma’danlarni qazib oluvchilarga imtiyozlar berish evaziga ixtiyoriy bu kasb bilan shug‘ullanuvchilarni ko‘paytirishga, mazkur faoliyat bilan shug‘ulanadigan aholi yashash manzillarining paydo bo‘lganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ilk bora ilmiy muomalaga kiritilgan O‘zbekiston arxivi fondidagi 45 ta fors, turkiy, rus tillardagi rasmiy hujjatlar: Buxoro xonligi hududidan topilgan foydali ma’danlar haqida bildirgi, ariza va qazib olishga ruxsat so‘ralgan arizalar, Buxoro xonligining ayrim bekliklari hududidan ma’danlarni qazib olishga ruxsatnoma hujjatlari, Xiva xonligida ma’danlarni qidiruv ishlari uchun rus tog‘-kon muhandislari qidiruv-tekshiruv ishlariga ruxsat so‘rash arizalari;

Qo‘qon xonligida tog‘-kon ishlari uchun ba’zi hukmdor oila vakillarining homiyligi, ma’danli konlar topilganligi haqidagi arizalar, hududdan qazib olinayotgan ma’dan konlarida ishni tashkil etish mehnat qurollari, konchilarning xizmat haqlari, kon xomashyosi savdosi haqidagi hujjatlar taqdim etilgan;

6 ta Xiva xonligiga oid hujjatdan ikkitasida XIX asrning 70-yillarida hududda oltin topilganligi va rus tog‘-kon muhandislarining neft hamda boshqa ma’danlarning qidiruv va tekshiruv ishlariga oiddir;

7 ta hujjat Buxoro xonligi hududida kon ishlariga oid bo‘lib, hududning oltin va boshqa ma’danlarini izlash bo‘yicha hisobotlar, oltin, qo‘rg‘oshin, alebastr, toshko‘mir konlarining topilganligi va qazib olish haqidagi arizalar;

Qo‘qon xonligida 13 ta kon ishi masalasiga taalluqli hujjatlar bo‘lib, xonlik oila a‘zolaridan Sulton Murodbekning kon ishchilariga mehnat qurollarining ta‘minot pattalari, konchilarga don va g‘alla bilan ish haqi berish qaydnomalari, ayrim konlarga ish boshqaruvchi sarkorga berilgan ta‘minot, ma’dan xomashyosini hukmdorga yetkazish pattalari ilmiy muomalaga kiritilgan;

16 ta hujjat Turkiston o‘lkasida konlarni xomashyosidan foydalanish hisobotlari, metall rudalarini qazib olishga doir 36 ta ruhsatnomalari va boshqa ko‘plab birlamchi arxiv hujjatlari ilmiy muomalaga kiritildi.

Turkiston xonliklarining o‘zaro hamkorlik aloqalari singari Markaziy Osiyo tarixining bahsli va kam o‘rganilgan masalalariga aniqliklar kiritildi.

Turkiston xonliklari hududidagi 287 ta konlarning tarixiy manzillari aniqlandi.

Bu ma‘lumotlar O‘zbek davlatchilik tarixining “xonliklar davri” ni yorituvchi hujjatli va badiiy filmlar yaratishda daliliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi fors, turkiy va rus tillaridagi birlamchi manbalar, jumladan rasmiy arxiv hujjatlarining qiyosiy-tanqidiy tahlil asosida o‘rganilganligi, ishning umumqabul qilingan tarixiy tadqiqot usullari hamda zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlarga tayangan holda bajarilganligi, aniqlangan yangi ma‘lumotlarning amaliyotga joriy etilganligi, ular asosida tegishli xulosa, taklif va tavsiyalarining ishlab chiqilganligi hamda natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishga yangicha yondashuvni, xususan, uni global tarix yoki jahon tarixi, ya‘ni mintaqa va mintaqalararo miqyosda sodir bo‘lgan voqealar kontekstida tadqiq etishni

rivojlantirish, fors, turkiy va rus tillardagi birlamchi manbalarni qiyoslash asosida Turkiston tog‘-kon ishi tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zamonaviy integratsiyalashuv jarayonida O‘zbekistonning keng iqtisodiy imkoniyatlari, tabiiy resurslaridan unumli foydalanish, ushbu foydali ma‘danlarni davlat taraqqiyoti, xalq farovonligi yo‘lida foydalanish uchun aniqlangan konlar joylashgan hududlarni zamonaviy texnologiya va usullarda qayta ishlovdan o‘tkazish, bu sohaga xorijiy tajriba va investitsiyalarni yo‘naltirish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turkiston xonliklarida XVI–XIX asrning 70-yillarigacha tog‘-kon ishlari tarixini o‘rganish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari tog‘-kon ishlari an‘analariga, siyosiy, iqtisodiy va turli migratsion sabablarga bog‘liq holda kechganligi, XVI asrgacha ham Turkistonda konchilik ishlari yo‘lga qo‘yilganligi, “hunarmandchilik uchun xom ashyoning barcha qismi tashqi savdo orqali kirib keladi” degan qarashlarning asossizligiga oid ma‘lumotlardan ilmiy va amaliy jihatdan foydalandi. (O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 28 sentabrdagi 3/1255-2069 ma‘lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tatix institutida 2018–2020-yillarda bajarilgan PZ-20170928402 “O‘zbekistonning O‘rta asrlar tarixi rasmiy hujjatlarda: muammoli jihatlar, talqin va tahlil (VII–XIX asr birinchi yarmi)” nomli amaliy loyihasining Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklar tarixi haqida O‘zbekiston Milliy arxivi va boshqa davlat arxivlarida saqlanayotgan tog‘-kon ishlari, metallurgiya tarixi, tog‘-kon xomashyosi bilan bog‘liq savdosiga doir faktlar aks ettiruvchi materiallarga ega bo‘lindi.

Turkiston xonliklari hududida aholi foydalangan asosiy tabiiy ma‘danlar va ularning konlari joylashgan 287 ga yaqin tarixiy manzillari aniqlandi hamda mahalliy konchi ustalar 280 ta tabiiy ma‘danni farqlab, ajrata olganligi va 8 ta ma‘danni amaliy hosil qilish usullarini bilganligi, “mahalliy konchi ustalar ilmiy bilimsiz” degan qarashlarning asossizligiga doir ma‘lumotlar o‘rganildi. (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoat va geologiya vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 08-29-72-son ma‘lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston hududida o‘rta asrlar tog‘-kon ishiga oid tarixiy bilimlarni boyitishga, O‘zbekiston Respublikasi Geologiya fanlar universiteti ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan o‘quv materiallari, ma‘ruza matnlari, o‘quv-didaktik materiallar tayyorlashga xizmat qildi.

Xonliklardagi tog‘-kon ishi, hududda maxsus kon ishi bo‘yicha ta‘lim muassasasi va boshqarmasi mavjud bo‘lmagan holda zaruriy ma‘danlar mahalliy konchilar tomonidan keng miqyosda qazib olish va qayta ishlash yo‘lga qo‘yilganligiga oid ilmiy materiallar jamlandi. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2021-yil 5-yanvardagi 02-40-09-son ma‘lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston tog‘-kon ishi tarixini ilmiy dalillar bilan boyitishga xizmat qiluvchi va mintaqada savdo-iqtisodiy munosabatlar bo‘yicha statistik taxliliy ma‘lumotlar aks ettiruvchi materiallarga ega bo‘lindi.

Turkiston xonliklarida konlar davlat mulki bo'lib, konlarni xavfsizligini nazorat etish uchun alohida xizmat joriy etilganligi, hukmdor tomonidan ayrim ma'danlarni to'plashda umumiy mehnat majburiyati bo'lganligi, konlarni ijaraga berishning huquqiy asoslari, konlar daromadidan xazinaga ijarachilar "xums" singari soliq to'laganligiga oid ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanildi. (O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasining 2024 yil 13-avgustdagi 1/1-5586-ma'lumotnomasi). Natijada qurol-yarog'larni tayyorlash texnologiyalari, bunda ishlatilayotgan materiallar shuningdek dissertatsiyada keltirilgan harbiy qurilish va harbiy ishga doir materiallardan Jamoat xavfsizligi universiteti ta'lim jarayonida qo'llaniladigan o'quv materiallari, ma'ruza matnlari, o'quv-didaktik materiallar tayyorlashga xizmat qildi.

Hukmdorlar tog'-kon ishini rivojlantirish uchun tashqi integratsion jarayonlarga kirishishga, ayrim ma'danlarni qazib oluvchilarga imtiyozlar berish evaziga ixtiyoriy bu kasb bilan shug'ullanuvchilarni ko'paytirishga, mazkur faoliyat bilan shug'ulanadigan aholi yashash manzillarining paydo bo'lganligiga oid ilmiy asoslangan taklif, tavsiya va xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-2024-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida tatbiq etilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil 31 iyul 332-son dalolatnoma). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va xulosalar O'zbekiston hududida tog'-kon ishlari, metallurgiya tarixini tadqiq etishga, o'zbek xalqining ilmiy-ma'naviy merosini tarixiy izchilikda ko'rsatib, konchilik ishlari bo'yicha ilmiy bilimlarni rivojlantirishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 18 ta ilmiy konferensiya, jumladan 10 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqotning asosiy mazmuni bo'yicha 42 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 23 ta maqola, jumladan 14 ta respublika va 9 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati, ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 260 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning O'zbekiston fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy tadqiqot usullari ko'rsatilgan,

ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarini amaliyotga joriy qilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Turkistonda tog'-kon ishi tarixining tarixshunosligi va manbashunosligi”**, deb nomlangan birinchi bobida muammoning o'rganilishidagi yondashuvlar, mavzuga oid ilmiy adabiyot va manbalarning bugungi kungacha mavzu bo'yicha olingan natijalari hamda ochiq qolgan masalalar, nazariy-uslubiy yondashuvlar, muammoli jihatlari tahlil etilgan.

Tadqiqotda foydalanilgan ilmiy adabiyotlar, hududiy (Buxoro xonligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, Turkiston o'lkasi tog'-kon ishlari) hamda muammoviy jihatdan (mavzuning ba'zi masalalarining xorijiy tadqiqotlarda aks etgan, shuningdek O'rta Osiyoning umumiy siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holatini yoritib beruvchi adabiyotlar) beshta guruhga ajratilib tahlil qilingan.

Buxoro xonligi hududida tog'-kon ishlari tarixiga oid tadqiqotlar.

O'rta asrlarning so'nggi davridagi Turkiston xonliklari aholisi orasida tabiiy boyliklarni qazib olish va ulardan foydalanish tarixini o'rganishda birinchi o'rin asosan rus olimlari va qisman XVIII-XX asr boshlaridagi G'arbiy Yevropa tadqiqotchilariga tegishlidir. Ulardan biri V.N.Tatishcheyev (1686-1750) edi. U Buxoroning hududdagi hunarmandchilik va savdo markazi sifatidagi ahamiyatini belgilab, Xo'jand, Balx, Hindiston, Eron va Xitoydan keltirilgan oltin va boshqa mahsulotlar haqida ma'lumotlar keltirgan⁵.

Xonliklar tabiiy imkoniyatlari, qazilma boyliklari⁶, geografiyasi, iqtisodi, etnografiyasiga oid I.P.Minayeva⁷, A.F.Kostenko⁸, D.N.Logofet⁹ va A.P.Shishovning¹⁰ asarlarida Buxoro xonligida oltin, kumush, temir, mis va boshqa foydali qazilma konlari joylashgan joylar haqida ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

V.N.Ogloblin¹¹, A. Korzuxin¹², V.V.Zaorskaya va K.A.Aleksander¹³, V.S.Ziv¹⁴ kabi mualliflar yaratgan asarlarda tog'-konchilik mahsulotlarini mustamlaka manfaatlari uchun bo'ysundirish to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Tog'-kon muhandislari L.Mixaylov¹⁵, P.A.Juravko-Pokorskiy va Rok-Ten¹⁶, A.F.Gubarevich-Radobilskiy¹⁷, D.V.Nalivkin¹⁸lar haqida sharqshunos tarixchi A.A.Semenov¹⁹ning asarlarida yoritilgan.

⁵ Татищев В.Н. Лексикон Российского исторического, географического, политического и гражданского // Татищев В.Н. Избр. произведения //Под общей редакцией С.Н. Валка. – Л.: 1979. – С. 153–360.

⁶ Золотопромышленность в Туркестанском крае // Русский Туркестан. - Вып. 2.- М.: 1872. – С. 183-193.

⁷ Минаев И.П. Сведения о странах по верховьям Аму-Дарьи. – СПб., 1879. – С. 53.

⁸ Костенко Л.Ф. Туркестанский край. - СПб., 1880.-Т. 3. – С. 182,183.

⁹ Логофет Д.Н. Страна бесправия.-СПб., 1909. – С. 78 – 82.

¹⁰ Шишов А.П. Таджики (Этнографическое исследование). – Алма-Аты: Ылым, 2006. – С. 237 –242.

¹¹ Оглоблин В.Н. Промышленность и торговля Туркестана. – М.: 1914. – 36 с.

¹² Корзухин А. Горное богатство. Азиатская Россия Т. 2. – СПб.: 1914. – 127 с.

¹³ Заорская В.В. и Александер К.А. Промышленные завидения Туркестанского края. – Пгр.: 1915.

¹⁴ Иностранные капиталы в русской нефтяной промышленности. – СПб.: 1915.

¹⁵ Михайлов Л. Золотопромышленность в Бухарском ханстве // Туркестанские ведомости. -1897- № 49.

¹⁶ Журавко-Покорский П.А. Очерк современного состояния золотой промышленности в Бухарском ханстве //Горнозаводской листок. - 1895.- №8; Рок- Тен. Золотые прииски в Бухаре // Туркестанский курьер. – 1910. –№169,170.

Geolog O.I.Isломov esa Iloqdagi qadimgi va o'рта asrlardagi yirik oltin va kumush konlarini o'rganishda qatnashish, uni boshqa hududlar bilan qiyosiy taqqoslash asnosida qadimgi oltinli qummi yuvib, oltin olish izlari Darvoz, Markaziy Pomir va Qora mozorda saqlanib qolganligi haqidagi fikrlarini ilgari surgan²⁰.

Bugungi kunda tog'-kon ishi tarixi, konchilikdagi zamonaviy usullar haqida hududlar bo'yicha Sh.E.Parmanov²¹, E.L.Karimov, A.M.Xo'jakulov va Z.Y.Latipovlarning²² olib borgan tadqiqotlari kiradi.

Xiva xonligi hududida tog'-kon ishlari tarixiga oid tadqiqotlar.

Xiva xonligidagi tog'-kon ishlari masalasi bo'yicha P.I.Richkov²³ va M.I.Ivanin²⁴lar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida xonlikdagi qimmatbaho metallarga ishlov berish, ularni qazib olinadigan konlari, ushbu ma'danlar xomashyosi bilan bog'liq hunarmandchilik mahsulotlari, ushbu hunarmandchilik ishlari savdosi haqida ma'lumotlar berib o'tadilar.

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston xonliklarining iqtisodiy, tabiiy imkoniyatlarini o'rganish borasida maxsus ixtisoslashgan jamiyatlar tashkil etilgunga qadar ham geografik-geologik tadqiqot ekspeditsiyalari tashkillashtirilgan²⁵.

XIX asrning 20-yillarida Xiva xonligida bo'lgan N.Muravyev: "Bu yerda hamma joyda oltin, kumush konlari mavjud. U yer bu yerda yashovchilarga hali yaxshi tanish bo'lmagan boshqa metallarga ham boy bo'lib, ular ba'zi ma'danlar,

¹⁷Губаревич-Радобыльский А.Ф. Экономический очерк Бухары и Туниса: Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. – СПб.: 1905. – С.76.

¹⁸ Наливкин Д.В. Золото Горной Бухары и Памира //Геологический вестник. Т.2. Вып. 1. – 1911.

¹⁹Семенов А.А. Некоторые особенности материальной культуры прошлых эпох Средней Азии // Известия. - Вып. 3. – Ташкент: 1928. – С.11–22; O'sha muallif. Исторический очерк художественных ремесел Узбекистана //Литература и искусства Узбекистана. – 1937. кн. I. – С. 112–129.

²⁰ Исламов О.И., Рутковская Л.М. Геолого-археологическая характеристика древнего рудника Кара- Мазар // Труды САГУ. 1959. - Вып. III // Археология Средней Азии. - Ташкент: Кн.25.- Вып. IV; Исламов О.И. Разведка памятников горного дела в республиках Средней Азии в 1955//Труды ИИЕТ. Т.33. – М.: 1960. – С.192–200.

²¹ Parmanov Sh.E. Kesh vohasida o'рта asrlar konchiligi va hunarmandchilik turlari // O'zbekiston milliy universiteti xabarlari. – 2017. – № 1–2. – В.86–89.

²² Karimov E.L., Xujakulov A.M., Latipov Z.Y. Kaliy tuzlarini qazish va qayta ishlashdagi texnogen chiqindilardan foydalanishning ayrim muommalari // Yerosti boyliklaridan oqilona va bexatar foydalanishning zamonaviy muommalari va rivojlanish istiqbollari // Xalqaro ilmiy- texnikaviy anjuman materiallari. – Tashkent: 2018. – В. 163–168; O'sha mualliflar: Геодинамические активные зоны Тюбегетанского месторождения калийных солей // Горный вестник Узбекистана. – Навои: 2018. – №2 (73). – С. 41–44; O'sha mualliflar: Гидравлическая закладка выработанного пространства при подземное добыче калийных руд // Journal of Advances in Engineering Technology. Vol.1 (1). 2020. - P. 25–28.

²³ Рычков П.И. Топография Оренбургской губернии. – Уфа: Китап, 1999. – С.1, 24, 26, 29, 139, 163.

²⁴ Иванин М.И. Хива и река Амударья. Сочинение с картой и рисунками. - СПб., 1873.- С.47-49.

²⁵ Ажигали С.Е. От ранних сведений о памятниках кочевого Арало - Каспия до экспедиции Я.П.Гавердовского 1803-1804гг. // Пространство и Время. – 2017. – № 2-3-4 (28-29-30) / – С. 108–127. Ч. 2. От дипломатической миссии А.Ф.Негри 1820-1821 гг. до образования Русского Географического общества // Пространство и Время. – 2018. – № 1-2 (31-32). – С. 88–106.

yer ustida ko‘z oldida yarqirab turgan metallardan mahoratsiz tarzda foydalanishadi”, – deb qayd etadi²⁶.

1874-yilda N.A.Ivanov tashabbusi bilan Amudaryo ekspeditsiyasi uyushtirilgan. Ushbu guruh 1883-yil, 1884-yil, 1886-yillar mazkur yo‘nalish bo‘yicha bir necha bor tadqiqot safarlarini amalga oshirganlar. Amudaryo quyi oqimining atrofidagi qumli hududlarni o‘rganishda olimlardan Doroshin²⁷, N.I.Barbota-de-Marni²⁸, A.M.Konshin²⁹, A.V.Kaulbars³⁰, V.A.Obruchyev³¹, Gedrays³², I.V.Mushketov³³, Карелин Г.С.³⁴ tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Qo‘qon xonligi hududida tog‘- kon ishlari tarixiga oid tadqiqotlar. Tadqiqotchilarning diqqat markazida Turkistonning turli hududlari qatori Farg‘ona vodiysining tabiiy boyliklari ham turgan. Dastlabki ma‘lumotni 1813-1814-yillarda Qo‘qon xonligida bo‘lgan F.Nazarov qayd etib o‘tgan³⁵. 1866-yilda Xo‘jandda bo‘lgan Mirsalek Bekchurin ushbu hududda temir, oltin, kumush, feruza va ko‘mir konlari topilganligi haqida yozib qoldirgan³⁶.

Rossiya imperiyasi qiziqishlari doirasida sharqshunos, geologlar tomonidan o‘lka imkoniyatlarini o‘rganish maqsadida tog‘-konchilik masalalarini tadqiq etishga harakat qilingan³⁷.

V.K.Razvodovskiy esa Buxoro, Samarqand, Xo‘jand, Marg‘ilon va Qo‘qonning qimmatbaho metallar xomashyosi bilan bog‘liq hunar turlari

²⁶ Путешествие в Среднюю Азию Николая Муравьева (1819-1820). Записки о Хиве // История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов ученых XVI- первой половины XIX в. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 186.

²⁷ Дорешин. Геологические заметки о полуострове Мангышлак. // Горный журнал №1. – СПб. 1871. – С. 61–113с.

²⁸ Барбота-де-Марни Н.И. О геологических исследованиях в Аму-Дарьинском крае // Известия Императорского Русского Географического Общества. Т. XI. – СПб.:1876. – С. 68–86.

²⁹ Коншин А.М. Путевые заметки о Каракумских песках. 1883 г. // Известия Императорского Русского Географического Общества. Т. XIX. – СПб., 1883., О‘sha muallif. Сарыкамышский озерный бассейн и Западный Узбой. Том. XXI. – СПб., 1885., О‘sha muallif. Древнем течении Амударьи. – СПб., 1897. – 250 с.

³⁰ Каульбарс А.В. Низовья Аму – Дарьи. Описанные по собственным исследованиям в 1873 г. // Записки Императорского Русского Географического Общества. Т. IX, – СПб.: 1881.-576 с.; О‘sha muallif. Древнейшие русла Аму-дарьи. – СПб.:1887. – 127с.

³¹ Обручев В.А. Закаспийская низменность. Геологический и орографический очерк по данным собранном во время экскурсий в 1886-1887-1888 годах // Записки Императорского Русского Географического Общества. Т. XX. – №3. – СПб.:1890. – 270 с

³² Гедрайц. Предварительный отчет о геологических исследованиях на сухих руслах Аму-Дарьи //Известия Императорского Русского Географического Общества Том XVIII. В. 2. – СПб.:1890. – С. 1–84.

³³ Мушкетов И.В. Краткий очерк геологического строения Закаспийской области. С геологической картой. Записки императорского С. Петербургского минералогического общества. Ч.28. – СПб.: 1891. – С. 345–391.

³⁴ Карелин Г.С. Путешествия по Каспийскому морю. Записки Императорского Русского Географического Общества. Т. X. – СПб.: 1883. – С.1–475.

³⁵ История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов ученых XVI- первой половины – XIX в / Составитель . Б.В. Лунин. – Ташкент: Фан, 1988.– С.165

³⁶ Бекчурин М. Наши завоевания 1866 года в Средней Азии //Записки Оренбургского отдела Имп. Русского географ. общ-ва. – Вып. второй. – Казань: 1871.– С.205..

³⁷ Федченко А.П. Путешествие в Туркестан //Известия о- ва любителей естествознания, антропологии и этнографии. Т. XI. Вып. 7. – СПб., – М., 1872., Мушкетов И.В. Краткий отчет о геологическом путешествии по Туркестану в 1875 году // Сбор. Соч. Вып. I. – СПб., 1876. – С. 111; О‘sha muallif. Mushketov E.W. Les rahises minerals due Turk Stan Russ.- Paris. 1878.

faoliyatini³⁸, K.Kalitskiy Kaspiy orti o'lkalari hamda Farg'onadagi neft konlari haqida³⁹, Masalskiy V.I.⁴⁰ o'lkadagi tabiiy boyliklar, minerallar, qimmatbaho metallar, ma'danlar, mamlakatda muomalada bo'lgan turli tarixiy davrlarga tegishli metall tangalarning sifati haqida ma'lumotlar keltirib o'tadilar.

R.Nabiyevning "Qo'qon xonligi tarixidan (Xudoyorxonning feodal xo'jaligi)" nomli monografiyasida "Xudoyorxon tasarrufida neft zavodi borligi" haqida xabar berilgan⁴¹.

1950 va 60-yillarda arxeolog va geolog olimlar O'zbekistonning ayrim hududlarini konchilik tarixi bilan bog'liq holda o'rganish bilan shug'ullanishgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga B.A.Litvinskiy⁴², M.A.Bubnova⁴³, Yu.F.Buryakov⁴⁴, E.B.Pruger⁴⁵, Yu.P.Manilov⁴⁶ O.I.Islamov⁴⁷ tadqiqotlari kiradi.

Sovet davrida tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortgan foydali qazilmalar – O'zbekiston hududida joylashgan tog'lardan olinadigan metall, yoqilg'i mahsulotlari edi. Ularni ko'proq tabiiy boylik zaxiralari va konlarning joylashgan o'rni hamda mamlakatning mineral resurslari kabi masalalar qiziqtirgan. 1950–1970-yillarda geologiya sohasi bo'yicha H.Abdullayev va boshqa olimlar tomonidan bir qator ilmiy ishlar qilingan⁴⁸.

Xullas, sovet hokimiyati yillarida kommunistik mafkura, ruhida yaratilgan ko'plab asrlarda tog'-kon masalasi noxolis, faqat o'sha davr iqtisodiy qiziqishlari, sovet sanoatiga ahamiyatli bo'lgan ma'danli konlar o'rganilgan. 1960-yillar oxirida

³⁸ Разводовский В.К. Опыт исследования гончарного и некоторых кустарных промыслов в Туркестанском крае. – Ташкент:1916. – С. 12–13.

³⁹ Калицкий К. Нефтяная гора (Закаспийской области). – Петроград: 1914. – 58с.; Калицкий К. Нефтяные месторождения Шурь-су и Камышь-баши (Ферганской области). – Петроград: 1915. – 60 с.; Калицкий К. Нефтяное месторождение Сел-рохо, Ферганской области. – Петроград: 1918. – 26 с.

⁴⁰ Масальский В.И. Туркестанский край. – СПб.:1913. – 861 с. (с картой).

⁴¹ Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худаяр-хана). – Ташкент: Фан, 1973. – С. 217.

⁴² Литвинский Б.А. К истории добычи полезных ископаемых на Челекене // Материалы Южно- Туркменской археологической комплексной экспедиции. – Ашхабад, 1949. Вып. 1. – 204 с.

⁴³ Бубнова М.А. Горно- металлургическая област Шильджи в IX-XII вв. н. э. (долина реки Таласс). Автореферат. дис. на соиск. учен. степени. канд. истор. наук. – Л., 1963. – 26 с.

⁴⁴ Буряков Ю.Ф. О местонахождении «серебряного рудника Шаша». – Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: 1965. – № 12. – С.28-30.

⁴⁵ Пругер Е. Б. К истории горного дела в Средней Азии (Археолого- методическое исследование по былой разработке полезных ископаемых на примере бирюзы). Автореферат. дис. на соиск. учен. степени канд. истор. наук. – Ташкент: 1971. – 20 с.

⁴⁶ Манылов Ю.П. Археологические памятники Султануиздага эпохи античности и средневековья (Археолого- топографическое исследование Султануиздага) // Автореферат. дис. на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент: 1972. – 20 с.

⁴⁷ Исламов О.И. Зарождение геологических знаний в Средней Азии // Абдуллаев Х.М., Васильковский Н.П., Вайнер Л.А., Исламов О.И. Очерки по истории геологического изучения Средней Азии. – Ташкент:1956; O'sha muallif: Исламов О.И., Рутковская Л.М. Геолого- археологическая характеристика древнего рудника Кан- и- Мансур // Труды САГУ – Ташкент: 1959. вып. III. Археология Средней Азии. Нов. Сер. Историч. Науки, кн. 25, IV; Исламов О.И.Разведка памятников горного дела в республиках Средней Азии в 1955 году. Т. 33. – М.:1960.

⁴⁸ Абдуллаев Х. М. Богатства недр Узбекистана на службе социализма. – Ташкент:1949; Очерки по истории геологической изученности Средней Азии // Вып. 13. – Ташкент: Труды ИГ АН Уз ССР. 1956; O'sha muallif: O'zbekistonda geologiya faning rivojlanishi – Tashkent: 1961; Akramxodjayev O.M. Yer qatlamlarining siri – Tashkent:1961; Исламов О.И. Из истории геологических знаний в Средней Азии. В 2-х частях. Ч.1. – Ташкент: Фан, 1976. – 102с. Ч. II. – Ташкент: Фан, 1977. – 136 с.

bu muammoga yangicha qarashlar asosida o'rganish boshlangan bo'lsa-da, tog'-kon ishi bo'yicha to'plangan tajriba va usullar, faoliyat yuritgan konlar ishi bunday konlar xomashyosi bilan bog'liq savdo munosabatlari tadqiq etilmagan. Shunday bo'lsada, mazkur davrlarda yaratilgan asarlardagi ma'lumotnomalarning kengligi va muammoga yondashuv uslublari mavzu tarixshunosligi hamda tarixni o'rganishda muayyan o'rin egallaydi.

Mustaqillik yillarida Yu.F.Buryakov⁴⁹, N.A.Abdurahimova⁵⁰, S.A.Dudakov⁵¹, X.Sh.Avazova⁵², N.U.Musayev⁵³, M.R.Jabborov⁵⁴, I.N.Jamolhoji⁵⁵ va boshqalar tomonidan Turkistonda tog'-kon ishlari tarixi, Turkiston o'lkasini Rossiya imperiyasi tomonidan xomashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilishi, tabiiy foydali qazilmalarni o'rganish va o'zlashtirish, tog'-kon sanoati sohasida mustamlakachilik siyosatini o'rnatish yuzasidan tadqiqot ishlari amalga oshirildi va asarlar yaratildi.

So'nggi yillarda tog'-konchilik tarixiga oid bir qancha maqola va monografiyalar ham nashr etilmoqda⁵⁶. Ushbu tadqiqotlar ilk o'rta asr tog'-kon ishi, metallurgiya bo'yicha terminologiyasi, shuningdek boshqa masalalarini ham davriy davomiylikda, o'tmish an'alarining tarixiy ildizlari haqidagi ilmiy tahlillarni oydinlashtirish imkonini beradi.

Xorijda nashr etilgan asarlar va maqolalarda ham tadqiqot qamrab olgan davriy chegara doirasida O'rta Osiyo tarixining ayrim masalalarini o'rganish asnosida xonlik iqtisodiy hayoti, tog'-konchilik xomashyosi bilan bog'liq hunarmandchilik masalalariga ham e'tibor qaratilgan⁵⁷. XVIII–XIX asrlardagi Turkiston xonliklari siyosiy tarixi, savdo, tashqi aloqalari, karvon yo'llari kabi

⁴⁹ Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. – М: Наука, 1974. –136 с.

⁵⁰ Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX- начало XX вв.). : Дис.. д-ра ист. наук. – Ташкент: 1994. – 273 с.

⁵¹ Дудаков С. А. История горнорудного дела средневековой Ферганы: Автореф. дис. ... на соиск. учен. степ. канд. ист. наук. – Ташкент: 1996. –18 с.

⁵² Авазова Х.Ш. Развитие банков и фирм в Туркестане во второй половине XIX-нач. XX вв: Дис.. канд. ист. наук. – Ташкент: 1997.-134 с.

⁵³ Мусаев Н.У. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане в конце XIX-нач. XX вв: Дис... д-ра . ист. наук. – Ташкент: 1999.- 293 с.

⁵⁴ Жабборов М.Р. Освещение Ферганской области в «Туркестанском сборнике»: Дис.. канд. ист. наук. – Ташкент: 2000. – 159 с.

⁵⁵ Jamolhoji I.F. Farg'ona vodiysida neft sanoatining shakllanishi va rivojlanishi tarixi (1860-1917-yillar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. –Toshkent: 2004. – 156b.

⁵⁶ Кандахаров А.Х., Полванова Ф.А. Наскальные рисунки и история горного дела под открытым небом в Зеравшанской долине // Вестник науки и образования. – № 3 (15). – 2016. – С. 22–25; Parmanov Sh. E. Kesh vohasining o'rta asrlar konchiligi va hunarmandchilik turlari // O'z MU xabarlar. – № 1. 2 -qism. 2017. – В. 86–88; Камолиддин Ш.С. Металлургия и ремесленное производство у древних тюрков. Т.1. – Ташкент: Extremum press, 2016. –268 с.; Металлургия и ремесленное производство у древних тюрков. Т. 2. – Ташкент: Extremum press, 2017. – 435 с.

⁵⁷ Bregel Y. The starts of the khanate of Khiva // Journal of Asian history. Vol. 12. – 1978. – P. 120–151; O'sha muallif. Central Asia. VII. In the 12 th – 13 th / 18 – 19 th centuries // Encyclopedia iranica. V. fas 2. 1987. – P. 183; O'sha muallif. Documents from the Khanate of Khiva (17 th-19 th centuries) // Papers on Inner Asia. – № 40. Bloomington, Indiana, 2007; Annanepesov M. The khanate of Khiva (Khwarazm) // History of civilizations of Central Asia. UNESCO Publishing. – Paris: 2003. – P. 63–70; Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. A Brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva – Oxford: 1959; Kelliner Heinkele B. Glimpses at the cultural life of 19 th century Khiva. Roesnik Orientalistyezny. T. XLIX, Z.2. 1994; Becher S. Russia's protectorates in Central Asia: Bukhara und Khiva, 1865–1924. – Cambridge: 1968.

masalalarni yoritish bilan bir qatorda, xonliklarda qazib olingan tog‘-kon mahsulotlarining xalqaro savdodagi o‘rni, ularning xomashyosi bilan bog‘liq hunarmandchilik va to‘lov vositasi sifatidagi ahamiyati haqida ham ma‘lumotlar beradi⁵⁸.

Mavzuning ayrim jihatlarini o‘zida aks ettirgan xorijiy tarixchilarning asarlarida tog‘-kon muhandislari Levat E.D.⁵⁹, Le-Strange G⁶⁰, Richmer – Riskmers V.⁶¹, Eichvald E.⁶², Pumpelli Rapxael⁶³, Georg Schettler⁶⁴ kabilar, ayniqsa Turkiston tabiiy boyliklari, yer qatlamidagi ma‘danlari, hududning iqtisodiy imkoniyatlari borasida tadqiqotlar olib boranliklari aks ettirilgan.

MDH davlatlarida ham mintaqa metallurgiyasi tarixiga oid bir qancha tadqiqotlar mavjud. Rossiya⁶⁵, Qozog‘iston⁶⁶, Tojikiston⁶⁷ va Qirg‘izistonda⁶⁸ ayrim tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

⁵⁸ Scott Levi. The Rise and Fall of Khoqand 1709-1876: Central Asia in the Global Age (Central Eurasia in Context) - University of Pittsburgh Press. -2017.- 288p.; Scott C. Levi. The Bukharan Grises: A connected History of 18 th-century Central Asia. - University of Pittsburgh Press. 2020. – 192p.

⁵⁹ Levat E.D. 1903. Richesses minerals des Possessions russes en Asie Centrale. Annales des mines de remeil de memoires sur l’ exploitation des mines et sur les sciences et les arrsgui sy rattachent. Seric X, t. III. - Paris: 1903.

⁶⁰ Le Strange G. The Lans of the Eastern Caliphate. - Cambridge:1905. P.437.

⁶¹ Richmer- Rickmers W. Travels in Bokhara // The Geographical Journal. December, 1899. Vol. XIV. N. 6; Richmer- Rickmers W. The Duabof Turkestan. A physiographie Sketch. And account of Some travels. - Cambridg: 1913.

⁶² Eichwald E. Reise auf dem Caspischen Meere und in den Gaucasus. Unternom men inden Jahren 1825-26. Bd. Stuttgart und Turingen, 1834.

⁶³ Pumpelli Raphael. Explorations in Turkestan with an account of the basin of Eastern Persia and Sistan. 1905. - Washington: – 350 p.

⁶⁴ Georg Schettler, Hedi Oberhansli, Galina Stulina, Aslan A, Mavlonov, Rudolf Numann. Hydrochemical water evolution in the Aral Sea Basin. Pat 1.: Unconfined groundwater of the Amu- Darya Delta Intreactions with sueface waters // Journal of Hydrology. – 2013. P. 267–284.

⁶⁵ Грунь В.Д. Развитие горного дела в Российской империи (XVIII в. – начало XX века) // Горная промышленность: ЮНИОР. 2021. juniorgm.ru <https://juniorgm.ru> > ecology.gpntb.ru . Электронная библиотека по экологии / Электронные информационные ресурсы ГПНТБ России по экологии. Выпуск 5. «Природные богатства Туркестана»; Пален К. К. Отчет по ревизии Туркестанского края: Краевое управление. СПб., 1910; Васильев Д. В., Нефляшева Н. А. Конструируя империю: исламские периферии России // Научные труды Института бизнеса и политики. Вып. 1.-М.; 2006. Шушкова М. Е. Организация управления Туркестаном в начале XX века: Дис.... на соиск. учен. степ. канд. ист. наук. – М.: 2015. – 313 с.; Сергеева З. Х. Ключевые этапы в истории освоения ресурсов углеводородного сырья // Вестник Казанского технологического университета. – 2011. – №2. [Электронный ресурс] (URL) <https://cyberleninka.ru/article/n/klyuchevye-etapy-v-istorii-osvoeniya-resursov-uglevodorodnogo-syrya> (дата обращения:10.02.2022).

⁶⁶ Сенигова Т.Н. Средневековый Тараз. - Алма-Ата: Наука, 1972. -219 с.; Черных Е.Н., Кузьминых С.В. Древняя металлургия Северной Евразии (сейминско-турбинский феномен). - М.: Наука, 1989. -320с.; Берденов С.А. Казахстанская горно-металлургическая область // Вопросы археологии Казахстана. Вып. 2. / Отв. ред. З. Самашев. -Алматы-Москва: Гылым, 1998. С. 180–190; Берденов С., Самашев З., Штолльнер Т., Черны Я., Ермолаева А., Куш Г. Древнее горное дело и металлургия Восточного Казахстана (начало работ по казахско-германскому проекту) // Вопросы истории и археологии Западного Казахстана. 2004. № 3. С. 154–170; Ткачев В. В. Горное дело и металлургия меди в Уральско-Мугоджарском регионе в позднем бронзовом веке // Известия Самарского научного центра РАН. Т. 12. – 2010. – № 2. – С. 268–271; Зиняков Н.М. Металлургия и металлообработка в средневековых городах Казахстана: характеристика общественных условий и уровня развития производства // Вестник Томского государственного университета. История. – 2013. – № 3 (23). – С. 231–234; Смагулов. Е. Древний Сауран. – Алматы: 2011. – 434 с.; Сураганова З. К., Казанбаевна З.З. Культ кузнеца у казахов: традиционные представления, ритуальные, мифологические и фольклорные аспекты //Археология Евразийских степей. – 2022. – №2. – С. 115–121.

⁶⁷ Сохибназаров М.Д. Из истории изучения золото и золотых изделий Центральной Азии в XVIII начале XX вв. // Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных

Amalga oshirilgan tarixshunoslik taxlili XVI–XIX asrning 70- yillarida Turkiston xonliklarida tog‘-kon ishi, metallurgiya tarixini kompleks tarzda tadqiq qilish ilmiy-nazariy, ham ilmiy-amaliy jihatdan zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida tadqiqotning manbaviy asoslari 4 guruhga bo‘lib yoritildi: 1) muarrixlarning turkiy va fors tilidagi tarixiy asarlari; 2) xotiralar, sayohatnomalar; 3) arxiv hujjatlari; 4) davriy adabiyot matbuot materiallari kiradi.

Dissertatsiyada tadqiqotchilar tomonidan kam o‘rganilgan Muhammad ibn Mansurning “Javohirnoma” (XV asr)⁶⁹, XVI asrga oid Sulton Muhammad Balhiyning “Majmuai al-g‘aroib”⁷⁰, Mahmud ibn Valining “Bahr ul asror fi manoqib ul- ahyor” (Olijanob kishilarning jasorati haqida sirlar dengizi) (XVII asr)⁷¹. Muhammad Haydarning “Shujoi Haydari” (XVIIa.)⁷², Muhammad Tohir ibn Aubqosimning “Ajoyib at-taboqat” (“Yer tabaqalarining ajoyibotlari”) (XVII a.) asari⁷³, muallifi noma‘lum “Javohirlar risolasi”⁷⁴, Aminaddinxon bin Sayyid Abdulmakorim Amirxon al-Husayniy al-Hiraviyning “Javohir qiymatini bilish haqida” (XIX)⁷⁵, Ibn Muborak Muhammad al-Qazviniyning “Javohirnoma” (XIXa.)⁷⁶, Najmiddin Ali Umar al-Qaziviniy al-Katibiyning “Tog‘ va ma‘danlarning yaratilish sabablari” (XIX a.)⁷⁷ kabi qo‘lyozmalar ham jalb etildi.

наук. – 2015.– С. 29-38; Сохибназаров М. Д. Товарно-денежные и торговые отношения в золотодобывающей промышленности Средней Азии в XVI-начале XX вв. (по данным письменных историко-литературных источников): Автореф. Дис. на соиск. учен. степ. канд. ист. наук. – Душанбе: 2018. – 27 с.; Сохибназаров М. Д. Техника и организация труда золотодобытчиков Центральной Азии XVI- начала XX вв. // Номаи донишгоҳ -Учёные записки- Scientific notes. – № 4(49). – 2016. – С. 18–21; Сохибназаров М. Д. Месторождения золота в Средней Азии XVI- начала XX вв. // Номаи донишгоҳ -Учёные записки- Scientific notes. – №2(47). – Душанбе, 2016. – С. 26–31; Фаирузшоева О.С. История геологических исследований ГБАО в системе академических и производственных учреждений России и Таджикистана (1872-1991 гг.): Дис. на соиск. учён. степ. канд. ист. наук. – Душанбе: 2019. –158с.; Турсунов Н.О. Этнокультурные аспекты использования традиционных ножей у таджиков (В сведение данных письменных источников и литературы на русском языке периода XVI- начала XX вв.). // История. – 2014. – № 1/10. - С. 165-17; Аширбеков Ч.А., Зонн И.С. Арал: История исчезающего моря. –Душанбе: 2003.–86с.; Мухидинов С. Р., Артыков А. А. Вопросы исследования добычи каменного угля и нефти в Средней Азии во второй половине XIX века // Муаррих-Историк-Historian. – № 1.– 2022. – С. 57–66.

⁶⁸ Mining, development and environment in Central Asia // Korotenko V., Muraliev A., Pechenyuk O., Sadykov R., Sakhvaeva E., Temirbekov A., Temirov A., and Ten L. Chatkal mineral resources. - Zoï Environment Network, University of Eastern Finland, Gaia Group Oy. 2012. – P.5-37.; Mendibaev N. and Isabaev K. Prospects of Green Economy in the Kyrgyz Republic. – 2011; Tiainen H., Novikov V. and Isabaev K.. Chatkal area social survey– Chatkal area. - 2011. P. 18-31.

⁶⁹ Muhammad ibn Mansur. Javohirnoma. O‘zR FASHI inv. 2294/II qo‘lyozma. 171a-246 b varaqlar .

⁷⁰ Sulton Muhammad ibn Darvesh Muhammad al- mufti al- Balxi. Majmuai al- g‘aroib.O‘zR FASHI inv. № 9227, 14 bob, 96-102 -b. varaqlar.

⁷¹ Mahmud ibn Vali. Bahr ul asror fi manoqib ul- ahyor. O‘zR FASHI inv. №2372 raqamli qo‘lyozma 4 a-532b varaqlar.

⁷² Muhammad Haydar. Shujoi Haydari. O‘zR FASHI inv. № 2467 raqamli qo‘lyozma - 1a-186 a varaqlar.

⁷³ Muhammad Tohir ibn Abdul Qosim. Ajoyib at- taboqat. O‘z R FA SHI inv. № 9042, 170 a – 179 b. varaqlar.

⁷⁴ Javohirlar risolas. O‘zR FASHI inv. inv. № 1273/ II 141 a- 152 b , yana bir qisqartirilgan nusxa № 1356/ VIII

⁷⁵ Aminaddinxon bin Sayyid Abdulmakorim Amirxon al-Husayniy al- Hiraviy. Javohir qiymatini bilish haqida. O‘zR FASHI inv. № 5050/III qo‘lyozma. -138a-142b varaqlar.

⁷⁶ Ibn Muborak Muxammad al- Qazviniy. Javohirnoma. O‘zR FASHI inv. № 3053 qo‘lyozma. - 1a-146 b varaqlar.

⁷⁷ Najmiddin Ali Umar al- Qaziviniy al- Katibiy. Tog‘ va ma‘danlarning yaratilish sabablari O‘zR FASHI inv. №5602 qo‘lyozma. 186 a- 187 b varaqlar.

Turkiston tog'-kon ishi, metallurgiya tarixiga bag'ishlangan maxsus manbaning bo'lmaganligi sababli, Buxoro, Xiva Qo'qon xonligi umumiy tarixiga oid turli xarakterdagi manbalardan tadqiqot davomida samarali foydalanishga harakat qilindi. Hatto xonliklar iqtisodiy, siyosiy hayotiga oid nashr etilgan hujjatlardan konchilik muammolariga aniqliklar kiritishda qo'llanildi.

Xonliklardagi saroy tarixchilari asarlarida Turkiston hukmdorlarining davlat xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan olib borgan siyosati va ehtiyotkorlik choralari tufayli xufiya qoldirilgan konlar haqidagi ma'lumotlar, xorijiy sayyohlar, savdo hujjatlariga oid ma'lumotlar, arxiv hujjatlaridagi kondan foydalanilganlik uchun berilgan rasmiy ruxsatnomalar orqali aniqlashtirildi.

Manbalar bilan ishlashda germenevtika usulidan foydalanishga va qiyosiy-tanqidiy yondashishga, xususan, ulardagi ma'lumotlarni gorizantal va vertikal tarzda kesishgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiqligini inobatga olib, keng masshtabli manbaviy bazadan foydalanildi.

Dissertatsiyaning **“Turkiston xonliklaridagi tabiiy qazilma boyliklarining asosiy turlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida XVI–XIX asr 70-yillarigacha metall rudasi uning turlari va qazib olish, nometall qazilmalar, qimmatbaho toshlar, qurilish xomashyosi mavjud konlar, yoqilg'i xillari va ularni qazib olish xususiyatlari, kimyoviy ma'danlar va ulardan qazib olingan xomashyo turlarining ko'lami, holati va taraqqiyoti tahlil etilgan.

Xususan, XV asr muallifi Muhammad ibn Mansur o'zining **“Javohirnoma”** asarida Buxoroda metallar o'tmishdan qazib olinganligini qayd etib o'tadi. Asarning ikkinchi qismida metall rudalarining xosiyati, tuzilishi, tarkibi, konlari ushbu ma'danni hunarmandchilikning qaysi sohasida ko'p ishlatilishi, oltin konlari haqidagi ma'lumotlarni keltiradi⁷⁸. Mahmud ibn Valining (XVII asr) ko'rsatishicha, Kashm, ya'ni Tohariston tog'larida oltin, kumush konlari, qalay, zumrad, la'l va ko'p foydali qazilmalar mavjudligi⁷⁹, Oltintog'da turli metall⁸⁰ – temir, oltin, kumush, feruza, **“hajrul ahmar”** (qizil tosh), la'l, mis, daxna (malaxit) kabi konlari joylashgan hududlar turli manbalar ma'lumotlari asosida tahlil qilingan⁸¹.

Manbalarda Sharqiy Buxoroda oltin qazib olinishi to'g'risidagi ma'lumot ko'p uchraydi. Ushbu qimmatbaho rangli metall Ko'lob, Boljuvon, Darvoz va Qorategin bekliklari hududidan qazib olingan⁸².

XIX asrning 20-yillarida Turkistonda **“Oltin tog'”**, deb atalgan tog'lar bo'lgan. Xiva va Buxoroning katta qismidan o'tgan bu tog'lardan foydali qazilmalar va sifati past metallar topilgan⁸³.

⁷⁸ Muhammad bin Mansur. Javharnoma. O'zRFASHI inv. №2294 /II raqamli qo'lyozma - 234b - 236b varaqlar.

⁷⁹ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География) / Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова. Отв. ред. А.К. Арендс). –Ташкент: Фан, 1977. – С. 75.

⁸⁰ Краткое описание Бухарии и Хивы // Сибирский вестник Ч. 1. – СПб., 1823. – С. 37.

⁸¹ Ibn Muborak Muhammad al- Qazviniy. Javharnoma O'zR FA SHI inv. № 3053. 1a -146b varaqlar.

⁸² Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч.3. – М.,1849. – С. 470

⁸³ Краткое описание Бухари и Хивы //Сибирский Вестник. – 1823. – Ч. I. – С. 89–94.

Shu bilan birga, Buxoro hukmdori Amir Sayyid Olimxonning (1881–1944) Buxoro tabiiy boyliklari haqidagi quyidagi qaydini keltirib o‘tish joizdir. U “Buxoroda tillo, kumush, qo‘rg‘oshin, mis, temir [konlar]lar ko‘p miqdorda topiladi. Xususan, Sharqiy qismlarda ma‘danlar borki, ular to shu mahalgacha ishlab chiqilmagan. Tabiiy boyliklar ichida neft, ko‘mir, gugurt (oltingugurt), nashatirlar (navshadil) mavjud”, – deb qayd etgan⁸⁴. E. K. Meyendorfnig qayd etishicha, Shahrisabz bekligidan temir qazib olingan⁸⁵. Temir ruda Buxoroning Boysun va Hisor tog‘laridan ham olinganligi ma‘lum. Boysun yaqinidagi Avliyot qishlog‘ida temir rudasi to‘plangan⁸⁶.

Kumush Jilg‘a daryosi bo‘yidan, aniqrog‘i daryoning o‘ng irmog‘idagi Gunta deb nomlangan kumush darasidan qazib olingan. Konga kumush sotishdan yaxshi daromad oladigan mahalliy aholi egalik qilgan⁸⁷. Gon tog‘lariga qarama-qarshi tog‘larda kumush konlari bo‘lgan. Ruda maxsus o‘choqlarda eritilgan, ularni endi qanday siljitishni bilmaydilar. Faqat ularning qoldiqlari Qal‘ai Badxona yaqinida saqlanib qolgan”⁸⁸.

Xiva xonligining tabiiy boyliklari haqida Abulg‘oziy o‘zining asosiy qismini 1663-1664-yillarda yozib tugatgan “Shajarayi turk” asarida Turkiston hududidagi o‘rta asrlarga xos temir rudasi mavjudligi va rudani olish haqidagi xabarlarini keltiradi⁸⁹. Bu ma‘lumot Xiva xonligi hududida temir rudasiga ega tog‘ bo‘lganligi va aholi undan temir metallini olishni bilganligini tasdiqlaydi. Ushbu usul og‘ir va tannarxi qimmatga tushganligi bois, savdo yo‘llari orqali Rossiya va boshqa mamlakatlardan keltiriladigan temirga ehtiyoj katta bo‘lgan.

Xiva xonligi hududida Gurlan qal‘a ortida daryo bo‘lib, shimolidagi tog‘liklardan oltin konlari⁹⁰, oltingugurt, la‘l va javohir ham borligi qo‘shimcha qilinadi⁹¹. Ushbu ma‘lumotlar xonlikda turli foydali va qimmatbaho qazilmalar mavjudligi, aholi bundan muayyan darajada xabardor bo‘lganligidan dalolat beradi⁹².

Xiva xonligining Sulton-Uvays tog‘larida kumush qazib olingan. A.Vamberi asarida Xiva hukmdori Olloqulixon davrida (1825-1842) uch yil ichida tajribali hind boshchiligida katta miqdorda kumush qazib olinganligini qayd etib o‘tiladi. Uning yozishicha, xonning vafotidan keyin ish boshqaruvchi hind qochib ketgan yoki o‘ldirilgan, kon esa tashlandiq holatga kelgan⁹³.

⁸⁴ Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 27.

⁸⁵ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. –С. 79.

⁸⁶ Бутенев К.Ф. Заводское дело в Бухарии // Горный журнал. Ч.IV. Кн. XI. – СПб., 1842. – С. 148–154.

⁸⁷ Иванов Д.Л. Шугнан. Авганские очерки // Вестник Европы. – СПб., 1885. Кн. 6. – С. 72.

⁸⁸ Ниалло Л. По горным тропам. Памирские путевые записки. – М – Т., 1933. – С. 133.

⁸⁹ Abulg‘oziy. Shajarayi turk. –Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B. 29.

⁹⁰ Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammad. Dil-i g‘aroyib. O‘zRFASHI inv..№ 1335 raqamli qo‘lyozma.– 199b varaq.

⁹¹ Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammad. Dil-i g‘aroyib. O‘zRFASHI inv. № 1335 raqamli qo‘lyozma.– 199b varaq. Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammad. Dil-i g‘aroyib. O‘zRFASHA inv. № 8448 raqamli qo‘lyozma. – 4a varaq.

⁹² Попов А.Н. Сношения России с Хивой и Бухарою при Петр Великом // Записки Императорского Русского Географического Общества кн. IX – СПб.,1853. – С. 291.

⁹³ Вамбери А. Очерки Средней Азии (дополнение к «Путешествию по Средней Азии»). - М. 1868. -С. 233.

Qo‘qon xonligidagi kon sanoati xususida Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” asarida “tog‘da temir koni”ni qayd etadi⁹⁴. Shuningdek, uning ta’kidlashicha, Xo‘jand aholisi temirni yaqin atrofdagi tog‘lardan qazib olgan.

Sayid Muhammad Tohir ibn Abul Qosim tomonidan 1640-yilda yozilgan “Ajoyib at-taboqat” (“Yer tabaqalarining ajoyibotlari”) asarida: “Farg‘ona tog‘larida oltin, mis, temir, simob, feruza, bisiyordir, O‘shda navshadil koni” bor, – deb eslatib o‘tadi⁹⁵. Namangan sharqida, Ketmontepa bo‘ylab temir qazib olingan, Chust qishlog‘i aholisi esa po‘lat eritgan. Toshkentdan 65 km uzoqlikda joylashgan Burchmulla qishlog‘i yaqinidagi tog‘lardan sifatli ma‘dan qazib olingan. Toshkentliklar Qorator tog‘larida qazib olingan temirdan yaxshi cho‘yan eritganlar⁹⁶.

Mis rudasi Muhammadalixon (Madalixon) (1822-1842) davrida Toshkent bilan Qo‘qon o‘rtasidagi Qoraxitoyda qazib olingan. Kichik mis konlari Oltintopgan dovonidan 4 km janubiy-g‘arbda joylashgan edi. Madalixon davrida bu yerdagi Cholota mavzesi rudalaridan mis eritilgan⁹⁷. Chirchiq hududida, Qorashko‘l bulog‘i bo‘yida (Toshkentdan 55 km uzoqlikda) boy mis ruda konlari faoliyat ko‘rsatgan. Kichik miqdordagi mis qazib olish ishlari O‘shdan Irkashtom istehkomigacha bo‘lgan yo‘lda, Sirdaryoning chap irmog‘i bo‘lgan Qoradaryo daryosi hududida amalga oshirilgan. Aholi xonlikdagi Navkat konidan ham qadim zamonlardan buyon mis qazib olganligi ma‘lum. Sirdaryo bo‘yida (taxminan 20 km uzoqlikda) joylashgan ushbu kon Qo‘qon xonligidagi yirik konlardan biri edi.

Muhammad Solihxo‘ja “Tarixi jadidayi Toshkent” asarida Farg‘onaga tegishli joylar haqida, jumladan Kabutari Kumushota tog‘laridagi tuz, temir, qo‘rg‘oshin, mis, oltingugurt, neft, oltin, kumush va boshqa konlardan foydalanilayotganligi to‘g‘risida yozilgan⁹⁸.

Mahmud ibn Valining yozishicha, XVII asrda Shosh (Toshkent) tog‘larida feruza, temir va qalay bo‘lgan, ammo mazkur davrda konlar ishlamagan. Jumladan, ushbu muallifning ma‘lumotiga ko‘ra, Shoshning ba‘zi tog‘larida, bir turdagi tosh bo‘lib, u o‘tinday yonadi va kulining rangi oq bo‘lib, bu kul bilan kiyimlar yuviladi. U sovun va ushnan (ishqorli kul bo‘lib, sho‘ra va pashmak o‘simliklarini yoqish orqali olingan) o‘rnini bosa oladi⁹⁹. Bu ma‘lumot hududda toshko‘mir qazib olinganligidan darak beradi. XVIII asrga oid manbalarda keltirilishicha, toshkentliklar o‘z hududidagi selitradan porox tayyorlaganlar.

⁹⁴ Hofiz Tanish al- Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi shohiy). 1 kitob / Fors tilidan S.Mirzayev tarjimasi, so‘z boshi va izohlar muallifi B. Axmedov. – Toshkent: Sharq,1999.– B. 43.

⁹⁵ Muhammad Tohir ibn Abdul Qosim. Ajoyib at- taboqat. O‘z RFA SHI inv. № 9042 raqamli qo‘lyozma. 171b varaq.

⁹⁶ Веберь В. Древняя и современная рудопромышленность Туркестана // Поверхность и недра. – № 4 (13) – Петроград:1917. – С. 2.

⁹⁷ Обзорение Кокандского ханства в нынешнем его состоянии // ЗРГО. – СПб.:1849. кн. 3. – С. 3.

⁹⁸ Muhammad Solihxo‘ja. Tarixi jadidayi Toshkent. O‘zR FASHI inv. № 7791 raqamli qo‘lyozma. – 976 a varaq.

⁹⁹ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География) / Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова. – Ташкент: Фан, 1977. – С 57.

Toshkentda navshadil (ya'ni nashatir) ham qazib olinib, boshqa mamlakatlarga olib ketilganligi haqida ma'lumotlar ham mavjud¹⁰⁰.

Qo'qon xonligida Namangandan 40 km uzoqlikda joylashgan neft buloqlari va quduqlarga boy Moybuloq neft bulog'i mavjud¹⁰¹. XIX asrda yashagan Muhammad Aziz ibn Muhammad Rizo Marg'iloniyning "Tarixiy Aziziy" asari beshinchi bobining bir fasli (qismi) "Oltariq va Chimyon oralig'ida topilgan yer yog'i va obodi xususida", deb nomlangan bo'lib, unda mazkur ikki qishloq orasidagi qir-adirlarda neft mavjudligi, undan aholi qadimdan foydalanib kelganligi aytilgan, neft qudug'ining tavsifi keltirilgan¹⁰². Asosiy neft quduqlari joylashgan hududlar 1. Changirtosh hududida, Andijon shahridan 46 verst, Oyim qishlog'i yaqinida. 2. Moylisoy hududida, Namangandan shimoliy sharqiy tomonga 48 verst masofadagi muzofotda; 3. Qo'qondan 30 verst janubda Karim devona qishloqlari yaqinidagi hududda 4. Patar yaqinidagi Konibodom qishlog'i yaqinidagi hududda¹⁰³ bo'lgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ham Farg'onada simob qazib olingan. Farg'ona viloyati aholisi Laylak daryosining o'ng irmog'i Berksuv bo'ylab simob qazib olganlar¹⁰⁴.

Mahalliy manba, arxiv hujjatlari va davriy matbuot nashrlari materiallari kabi birlamchi manbalar orqali tadqiq va tahlil etish natijasida olingan xulosalarga ko'ra, mahalliy aholi qadim zamonlardan boshlab tabiiy qazilma boyliklarining joylashuvi, ulardan foydalanish borasida chuqur bilim va tasavvurlarga ega bo'lganligi tahlil qilindi.

Jumladan, ruda qazib olishning tarixiy tahlili asosida xonliklar aholisi temir, marganets, rangli, asl va noyob metallar, radiaktiv elementlarning xususiyatlari va qayerda joylashganligini aniqlabgina qolmay, yoqilg'i qazib olish sohasining rivojlanish bosqichlarini tahlil etish natijasida neft, ko'mir va boshqa tabiiy boyliklarning xalq turmushda keng foydalanganligi ma'lum bo'ladi.

Dissertatsiyaning **"Turkiston xonliklarida tog'-kon ishlari holati va an'analar"** nomli uchinchi bobida xonliklarda tabiiy boyliklar bo'yicha davlat siyosatining muhim jihatlari, konchilik tizimining huquqiy asoslari va bu borada mavjud soliqlar, tog'-kon ishlari tashkil etilishining asosiy xususiyatlari, konchilar va ularning ijtimoiy tarkibi, konchilik sohasidagi an'ana va usullar kabi masalalar tahlil qilingan.

Xonliklarda tog'-kon ishlarida mayda ishlab chiqaruvchilar bilan bir qatorda, amaldor, savdogar hatto harbiy xizmatchilar ham shug'ullanganlar¹⁰⁵. Oltin qazish

¹⁰⁰ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География) / Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова. –Ташкент: Фан, 1977. – С. 57.

¹⁰¹ Yujin Skayler. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo'qon, Buxoro va G'uljaga sayohat qaydlari / Kirish, ingliz tilidan qisqartirilgan tarjima, izohlar va ko'rsatkichlar muallifi- t.f.n., dots. Z.A.Saidboboyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 271.

¹⁰² Muhammad Aziz Marg'iloniy. Tarixi Aziziy. O'zR FASHI inv. № 1108 raqamli qo'lyozma.– 403a varaq.

¹⁰³ O'z MA, I-1 fond, 11- ro'yxat 373. yig'ma jild - 5b varaq.

¹⁰⁴ Вебер В.Н. Полезные ископаемые Туркестана. – СПб., 1913.

¹⁰⁵ Жамолхожи И.Н. История формирования и развития нефтяной промышленности в Ферганской долине (1860-1917): Автореф. дис. ... на соиск. учен. степ. канд. ист. наук. – Ташкент, 2004. – 27с.

ishlarida hech qanday ruhsatnomasiz ishlatilgan dehqonlar endi soliq to'laydigan bo'lgan. Oltin qazib olish ishlarining, kam daromadli bo'lishiga qaramasdan, keng yoyilishi mahalliy aholining yashash sharoitida faqat dehqonchilik asosida o'zlarining barcha hayotiy ehtiyojlarini ta'minlay olmaganligi bilan bog'liq edi. Oltin qazib olish huquqi uchun aholi tomonidan soliqlar turlicha undirilgan. Talbaru, Shungau va Safed daryo atrofida yashovchi aholidan bir yilga har bir xonadondan 1 tillo undirilgan bo'lib, umumiy 700 tillo yig'ilgan¹⁰⁶.

XVIII asr oxirida Toshkent hokimi Yunusxon (1784-1809 yillar) "o'z yerida metalli, selitralli konlarni ko'pligini tekshirish uchun" ma'danlar bo'yicha bilimdon odamlarni yuborish iltimosi bilan Rossiya podshosiga murojaat qilgan¹⁰⁷. 1800-yilda Toshkent hukmdori Yunusxo'janing taklifi bilan T.S.Burneshyev, M.Pospelov bilan birgalikda Toshkentga kelgan. Ular bu yerda oltingugurt olishni tashkil etish hamda Toshkent yaqinida konlar qidirish ishlariga jalb etilganlar. Biroq bunday sa'y-harakatlar Turkiston xonliklarida konchilik ishining rivojlanishiga olib kelmagan edi¹⁰⁸. Bunday holat yuzasidan ayrim tadqiqotchilarning ishlarida Rossiya tashqi siyosat arxivi 1831-yil Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1822-1842)¹⁰⁹, Buxoro xoni 1839-yil Nasrulloxon (1826-1860) tomonidan murojaatlar bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Xonliklardagi huquqiy, ma'muriy masalalar shariat asosida tuzilgan bo'lib, davlat ishlaridan tortib, to yer-suv, shu jumladan tabiiy hamda neft konlari va ma'danli buloqlarga oid muammolargacha shariat hukmiga bo'ysungan. Agar biron kishi boyluk topib olsa, undan "xums" (beshdan birini) solig'i to'lagan¹¹⁰. Xususan, topilgan kon, xazina, yerosti qazilma boyluklaridan olingan daromad, harbiy yurishlarda olingan o'ljadan - xums solig'i olinib, uning miqdori daromadning beshdan bir qismini tashkil etgan¹¹¹.

Umuman, o'rta asrlarda aksariyat holatlarda mamlakat tabiiy boyluklari davlat hukmdoriga tegishli, deb sanalgan. Ayni vaqtda, konlarda ishlovchi konchilar olgan daromadlaridan soliq to'laganliklari ham hujjatlarda qayd etiladi.

Mamlakatimiz tarixiga oid ba'zi ma'naviy meros bo'lgan manbalarda qimmatbaho ma'dan konlari suyurg'ol (shahzodalarga, yirik din ulamolari va

¹⁰⁶ Журавко-Покорский П.А. Очерк современного состояния золотой промышленности в Бухарском ханстве // Горнозаводской листок. – 1895. – №8., Рок-Тен. Золотые прииски в Бухаре // Туркестанский курьер. – 1910. – №169,170

¹⁰⁷ Путешествие от сибирской линии до города Бухары в 1794 году и обратно в 1795 году Т. Бурнашева // История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов ученых XVI- первой половины – XIX в. / Составитель Б.В. Лунин. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 141–145.

¹⁰⁸ Поездка Т. Бурнашева И. М. Поспелова в Ташкент (1800) // История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов ученых XVI- первой половины – XIX в. / Составитель Б.В. Лунин. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 145.

¹⁰⁹ Бубнова М.А. Добыча полезных ископаемых в Средней Азии в XVI-XIX вв.- М.: Наука, 1975.- С.20.

¹¹⁰ Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya: 4 jildlik/Arab tilidan Salohiddin Muhiddin va b. tarjiması. – Ташкент: Adolat, 2000. 1. jild. –B.365.

¹¹¹ Olim ibn al – Xanafi. Fatvoi- tatarxoni. O'zRFA SHI inv. № 2860 - 311 a varaq; Lexicon bibliographicum et encyclopaedicum a Mustafa ben Abdalteh Katib Jelebi dicto et nomine Haji Khalfa celebrato compositum. Ad codicum Vindobonensium, Parisiensium et Berolinensis fidem primum edidit, latine vertit et commentario indlcibusque instruxit G.Fluegel, t. I-VII. - Leipzig-London: 1835-1858. (Haji Khalfa, t. II , P. 90-91).

sayyidlarga beriladigan in'om) tariqasida berilgan¹¹². M.E.Massonning so'zlariga ko'ra, xonliklar davrida mintaqadagi konli yerlar (feruza, temir va cho'yan qazib olinadigan konlardan tashqari) suyurg'ol mulk qilib berilgan¹¹³. Bu konlarda ish faoliyatining davom etishi suyurg'ol mulk egasining xohishi, imkoniyati, ishni tashil etishiga bog'liq bo'lgan.

Tog'-kon ishlari borasida xonliklarda turli hujjatlar rasmiylashtirilgan. Jumladan, bu borada keng tarqalgan hujjat turi "patta" edi. 1871-yilga oid hujjatda Mavlonbek degan amaldor tomonidan Baxti Muhammad qo'rboshiga konchilar ish haqini solish uchun maxsus xurjuni olib borishi uchun "patta" berilganligi qayd etiladi¹¹⁴. Bu hujjat konda ishlagan ishchilar muayyan maosh olganliklaridan ham dalolat beradi. Qo'rg'oshin qazib oluvchi konchilarga kondagi qazish ishlarida yuk ko'tarish uchun ishlatishga eshak olish uchun Qo'qon amaldorlaridan biri Mulla Abd-Dalil mirzaboshi¹¹⁵ tomonidan Soyib sarkorga¹¹⁶ yigirma tanga berilganligi qayd etiladi¹¹⁷. Qo'qon xonligi tarixiga oid 1871-yilda rasmiylashtirilgan hujjatda Soyib sarkorga konchilar oziq-ovqati uchun bug'doy, guruch berilganligi qayd etilgan. Hujjat Qo'qon xoni Xudoyorxonning ukasi Muhammad Sulton Murodbek ibn Shermuhammad Alixon tomonidan shaxsiy muhr bilan tasdiqlangan¹¹⁸. Ushbu hujjatlarni o'rganish, Qo'qon xonligida tog'-kon ishlariga oid masalalar hujjatlashtirilib borilganligi, konchilar hukmdor va saroy zodagonlari homiylik qilganliklari ma'lum bo'ladi.

XIX asrga oid hujjatlarning birida Sharqiy Buxoro yerlaridagi oltinli qum mavjud hududlarning ijara shartnomasi keltirilgan. Hujjatda oltin qazib olish bilan shug'ullangan buxorolik shaxslarning davlatga topshirgan oltin miqdori ko'rsatilgan¹¹⁹. Hujjatda nomlari zikr etilgan shaxslar ismi yoniga qo'shib markaziy boshqaruv tizimida egallab turgan lavozimi – jo'yon, dodxoh, eshikog'aboshi mansablari tilga olinadi. Hujjatlarda sharqiy Buxoroning oltinga boy va ijaraga berilgan boshqa hududlari ham bo'lganligi aniqlandi¹²⁰.

¹¹² Зайн ад-дин Васифи. Бадаи' ал-вакаи'. Критический текст, введение и указатели А. Н.Болдырева. Т. II. – М.: Наука,1961. – С. 1332.

¹¹³ Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. – Ташкент: Изд. АН Уз ССР, 1953. – С. 32.

¹¹⁴ O'z MA, F-1043 fond, 2530 - yig'ma jild - 1 a, varaqlar.

¹¹⁵ Mirzaboshi-Qo'qon hukmdori hokimlarni almashtirish vaqtida ular hukmronlik qilgan viloyatlar byudjet mablag'larining sarf-xarajati ustidan taftish o'tkazib borishgan va bu ish aynan mirzaboshi tomonidan amalga oshirilgan.

¹¹⁶ Sarkor-fuqarolik ishlari va soliq yig'ish bilan shug'ullanuvchi. T.Beysembiyev Mulla Niyoz Muhammad ibn Ashur Muhammad Xo'qandining "Tarixi Shohruxiy" asari ma'lumotlariga tayanib, viloyatdagi sarkor hokimlarning asosiy yordamchisi bo'lganligini ta'kidlaydi // Бейсембиев Т.К. Высшая администрация юга Казахстана в период Кокандского ханства (1805-1865). – Алма-ата: 1987; R.Nabiyev o'z tadqiqotlarida ularning bir vaqtning o'zida ham agrar masalalarni, ham savdo-sanoat munosabatlarni, ham hunarmandchilik korxonalarini nazorat qilganligini va oliy hukmdorning hamda viloyat hokimlarining xo'jaligidagi barcha masalalarda ham muhim o'rin tutganligini qayd etadi // Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. – Ташкент: 1973. – С. 228-231.

¹¹⁷ O'z MA, . F-1043 fond, 2511- yig'ma jild - 1a varaq.

¹¹⁸ O'z MA, . F-1043 fond, 2512 - yig'ma jild - 1a varaq.

¹¹⁹ O'z MA, I-126-fond, 1- ro'yxat , 683 - yig'ma jild - 1a varaq.

¹²⁰ O'z MA, I-126-fond, 1- ro'yxat , 1041 - yig'ma jild - 1 varaq.

Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonligida tog‘-kon ishlari bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar “konchi”, “tog‘chi” kabi nomlar bilan nomlangan¹²¹.

Konchilar maxsus ish yurituvchi shaxs rahnamoligida ishlaganlar va ish unumdor bo‘lishi uchun ular mehnat qurollari bilan ta‘minlangan. Qo‘qon xonligida sarkor, qo‘rboshi tog‘-kon ishlarida ish yurituvchi, ta‘minotchi¹²² vazifasini bajarganlar. Ushbu shaxslar konchilarning mahsulotlarini xaridorga etkazib berish ishlari bilan ham shug‘ullanganlar, ya‘ni tog‘-kon mahsulotlarining savdosiga mas‘ul hisoblanganlar.

Manbalarda Turkiston xonliklaridagi konchilik ishi uning o‘ziga xos jihatlari haqidagi ayrim ma‘lumotlar saqlanib qolgan. Masalan, Buxoroda metall qazib oluvchi ustalar turli soliqlardan ozod etilganligi, Qo‘qon xonligi mahalliy ma‘murlari aholidan mis idishlarni yig‘ib, “mis puli” solig‘i yig‘imini qoplaganliklari, savdo karvonlarida ham mis metall holatida yoki misdan yasalgan uy-ro‘zg‘or buyumlari ko‘rinishida sotilganligi¹²³ qayd etiladi. Toshkent mulkida qo‘rg‘oshin rudasini “kerak bo‘lgan har kim” qazib olishi mumkinligi hududlardan topilgan oltinni aholining o‘zi yig‘ib olishiga ijozat berilganligi¹²⁴ Sirdaryoning yuqori qismida oltin qazib olingani va hudud “aholisi o‘sha oltin bilan o‘zining tirikchiligini ta‘minlagan”ligi haqidagi ma‘lumotlar mavjud.

Dissertatsiyaning **“Tog‘-kon mahsulotlarining xonliklar iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni”** nomli to‘rtinchi bobida xonliklarda qazib olingan ma‘danlarning jamiyat hayotida hunarmandchilik, savdo, tibbiyotdagi o‘rni va ahamiyati, konchilik mahsulotlari bilan amalga oshirilgan xalqaro savdo, konlardan qazib olingan qimmatbaho toshlar va ularning savdosi, narxlari tahlil qilingan.

Turkiston xonliklari hududidan qazib olingan turli hil foydali qazilmalar xonliklar iqtisodiyoti taraqqiyotida ahamiyati katta bo‘lgan. Ayni vaqtda tog‘-kon mahsulotlarining qazib olinishi savdo-sotiq rivojiga samarali ta‘sir ko‘rsatgan. Xususan, Xiva va Astrobod o‘rtasidagi savdo munosabatlarida turkmanlarning yovmud urug‘i juda faol bo‘lgan¹²⁵. Xonliklarda konlardan qazib olingan qazilma boyliklari birinchi navbatda hunarmandchilik uchun asosiy xomashyo vazifasini o‘tagan. Buni tasdiqlovchi ma‘lumotlarning barcha xonliklarga oid manbalardan topish mumkin. Ularning ko‘rsatishicha, konchilik bilan uzviy bog‘langan hunarmandchilik sohalari – qurolsozlik, temirchilik, metall eritib buyum yasash kabilarni kiritish mumkin. Jumladan, qurolsoz hunarmandlar metallardan pichoq, miltiq, qilich, nayza, sovut, dubulg‘a va boshqa anjomlarni yasaganlar. 1838-yilga

¹²¹ Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. – Ленинград: Издание государственной публичной библиотеки, 1940. – С. 47.

¹²² O‘z MA, F-1043 fond, 2514 - yig‘ma jild - 1 a-1b varaqlar.

¹²³ Исламов О.И. Из истории горного дела и геологических представлений у народов Средней Азии с древнейших времен до XVIII в. // Очерки по истории геологических знаний. № 4. – М: Наука, 1955. – С. 66.

¹²⁴ Зияев Х. Ценные материалы по истории Ташкента // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1971. – №4. – С. 54.

¹²⁵ Хивинское ханство // Туркестанский сборник. – СПб., 1873. Т. 54. – С. 123.

oid ma'lumotlarga ko'ra, Xivada ikkita qurolsozlik ustaxonasi mashhur bo'lib, ulardan biri Yangi Urganchda va keyingisi Hazoraspeda joylashgan edi¹²⁶.

Abdurahmon Tole o'zining «Abulfayzxon tarixi» asarida Buxoroning chegara hududida yashovchi aholisi doimo zarur hollarda tillo yig'ib kelib, markazdagi zarbxonada oltindan tanga qoqtirib kelganligi, tanga zarb qilib berganliklari uchun uning ma'lum qismini davlat xazinasiga to'laganligini eslatib o'tadi¹²⁷.

Turkiston xonliklaridan qazib olgan tog'-kon mahsulotlari bilan faol savdo aloqalari o'rnatilgan. Bu mahsulotlar bilan nafaqat xonliklar o'zaro savdoni amalga oshirganlar, balki ko'p hollarda ular tashqi savdoni amalga oshirilganlar. Bu holatni tasdiqlovchi ma'lumotlar ko'pgina manbalarda o'z aksini topgan.

Turkiston xonliklariga Hindistondan "hindi tig' va shamshirlar"ni keltirganlar¹²⁸. XIX asga oid ma'lumotlarga ko'ra, Panjobdan Yorkent orqali Qo'qon xonligiga temir po'lat olib kelingan¹²⁹. Hindistonning Qashg'ar orqali Qo'qon bilan savdo aloqalari ham ancha samarali va daromadli bo'lgan Afg'onistondan Qo'qon xonligiga Buxoro orqali afg'on qilichi, xanjar kabi mollar keltirilgan¹³⁰. Qo'qon xonligiga Eronning yirik markazi Mashhaddan boshqa mollar bilan birga, tog'-kon mahsulotlari xomashyosi bilan bog'liq oltin ip bilan tikilganfors parchasi, feruza, pichoqlar, hanjar, qurol, temir, mis buyumlari olib kelingan¹³¹. Turkiston xonliklarida eng yaxshi qilich Xuroson va Eron qilichlari hisoblangan. Xususan, Buxoro qilichi bir tillo narxda, Eron qilichi undan o'n barobar qimmat narxda sotilgan¹³². Buxoro xonligiga Qashqardan keltirilgan kumush yombilar 32 ta Buxoro tillosiga sotilgan. Oltin Buxoroga Rossiyadan va hind sarroflari orqali Qobuldan keltirilgan¹³³.

Hind savdogarlari Qo'qon xonligidan oltin yombilar va tilla tangalarni ham olib ketganlar. V.Vilyaminov- Zernov ma'lumotlariga ko'ra, XIX asr o'rtalarida qorateginliklar Qo'qon xonligi bozorlariga mahalliy usulda tayyorlangan oltin yombilarni olib kelganlar va Qo'qon bozorida Qorategin oltining misqoli 16,5 tanga, kichikrog'i 14,5 tangadan sotilgan. Ba'zi vaqtlarda bir misqol Qorategin oltinining narxi 18 tanga, kichikrog'ining misqoli 16 tangaga sotilgan hamda bu oltinning katta qismi hind va afg'on savdogarlari tomonidan xarid qilinib, Buxoro orqali Hindiston va Afg'onistonga olib ketilgan¹³⁴.

¹²⁶ Иванин М. Хива и река Аму -Дарья // Туркестанский сборник. – СПб.: 1873. Т. 68. – С. 67.

¹²⁷ Абдуррахман-и Тали. История Абулфейз-хана // Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели профессора А.А. Семенова. – Ташкент: Изд. АН Уз ССР, 1959. – С. 118.

¹²⁸ Mahmud ibn Vali. Bahr ul asror fi manaqib ul- ahyor. O'zR FASHI inv. № 2372 raqamli qo'lyozma –279a. varaq.

¹²⁹ Качанов В.И. Панжаб в период образования государства сикхов // Индийский этнографический сборник. – М., 1961. – С. 38.

¹³⁰ Madrahimov Z. Qo'qon xonligida savdo munosabatlari tarixi. – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – B. 55.

¹³¹ Madrahimov Z. Qo'qon xonligida savdo munosabatlari tarixi. – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – B. 62.

¹³² Михалева Г.А. Узбекистан в XVIII-первой половине XIX века: ремесла, торговля и пошлины. – Т., 1991.– С. 22

¹³³ Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и И.В. Виткевича). – М.:Наука, 1983. – С. 105.

¹³⁴ Вельяминов – Зернов В.В. Торговое значение Кокандского ханства для русских // ИРГО.– СПб.:1854. – С. 51.

1865-yilga oid ma'lumotda Toshkent bozorlarida hindlar Buxoro va Qo'qon oltin va kumush tangalarini qimmat narxda sotib olayotganliklari haqida ma'lumot berilgan¹³⁵. Ularning yuqori sifatligi tahlil qilingan.

XVII asrga oid Buxoro hukmdorining Eronga yozgan maktubida Yaqubboy boshchiligidagi elchilar bilan birga, tabib va bir guruh hunarmandlar, ya'ni "baxmalga naqsh soluvchi mohir tikuvchi, mashhur zargar, chinni ustasi bo'lgan kulol, kimyoviy usullarsiz misni oltinga aylantira oladigan usta" ning Eronga yuborilayotgani ma'lum qilinadi¹³⁶. Ushbu ma'lumotdan anglashiladiki, Turkiston xonliklaridan qo'shni mamlakatlarga turli metallarni sun'iy hosil qilish bo'yicha tog'- konchilik sohasi kashfiyotlari, tajribalar almashinuvi sodir bo'lgan.

Manbada qayd etilishicha, savdo ishlarida dallollar xizmati yo'lga qo'yilgan. Ular 10 tillolik oldi-sotdi shartnomasi uchun bir tangadan ish haqi olganlar.

Xalqaro savdoda Turkiston xonliklari hududidan olingan ma'danlardan ayrimlarining bahosi uzoq davr davomida o'zgarmagan. Aminaddinxon bin Sayyid Abdulmakorim Amirxon al-Husayniy al-Hiraviyning ma'lumotiga ko'ra, javohirlar marvarid, yoqut, zumrad, la'l, feruza, marjon, dahana (malaxit)savdodagi qiymati sifatiga qarab to'rt dinordan sakkiz dinorgacha baholangan. Ibn Muborak Muhammad al-Qazviniyning "Javharnoma" (XIX a.) asarida yozishicha, Xorazm diyori qizil yoquti ham ming dinordan-7 ming dinorgacha sifatiga qarab narxlangan¹³⁷. La'lning bir donigi - 2 dinor, ikki donigi - 5 dinor, yarim misqol vazndagisi 10 dinor, to'rt donigining bahosi 20, besh donigi -30, bir misqol vazndagisi - 50 dinor,..” – deb qayd etadi¹³⁸. O'rganilayotgan davr oralig'idagi narx-navo ko'pam farq qilingan. Ammo o'lchamlarning o'zgarishi tufayli narxlarda ayrim o'zgarish va qo'shimchalarni kuzatish mumkin. Aminaddinxon bin Sayyid Abdulmakorim Amirxon al-Husayniy al-Hiraviy (XIX a.) la'l haqida "la'l Badaxshon yon bag'ridan topiladigan oltita ma'dandan biridir. Tog'dan zilzila natijasida katta parcha yiqilsa, u yerdan la'l doimo topiladi. La'lning rummoniy rangi yuqori baholanadi. Ammo zumrad bahosidan pastroq qiymatda baholangan. La'lning xususiyati uyqusizlik kasalligini davolaydi”¹³⁹. Badaxshondan l'al qzib olinish boshqa manbalarda ham o'z tasdig'ini topgan¹⁴⁰. Feruza toshi bilan ham keng savdo amalga oshirilgan. Bu toshning narx-navosi haqida XV asr muallifi Muhammad ibn Mansur "feruza-i Iloqiy 200 diram bo'lsa, 50 dinorga baholangan"¹⁴¹, deydi.

¹³⁵ Романовский Д.И. О географических исследованиях в Киргизской степи и Туркестанской области в 1865 году и несколько слов о торговом значении Ташкента // Сборник статей о Средней Азии. Т. VI. 1867.– С.22.

¹³⁶ Ходжаева Б.С. Сборник документов по истории Средней Азии XVI-XIX вв. // Общественные науки в Узбекистане. – 1993. – №6. – С. 26-29.

¹³⁷ Ibn Muborak Muhammad al- Qazviniy. Javharnoma. O'ZR FA SHI. № 3053 raqamli qo'lyozma 30 a - 31b varaqlar.

¹³⁸ Muhammad bin Mansur. Javharnoma. O'zR FASHI inv. №2294 /II raqamli qo'lyozma. 201b – 203 b varaqlar.

¹³⁹ Aminaddinxon bin Sayyid Abdulmakorim Amirxon al-Husayniy al-Hiraviy. Javohir qiymatini bilish haqida. O'zR FASHI inv. №5050/ III. – 140 b. varaq.

¹⁴⁰ Muhammad Amin Buxoriy. Muhit at- tavorix (Tarixlar majmuasi) / Tarjima, kirish va izohlar muallifi D.Yu. Yusupova va U. Hamroyev. – Toshkent: Fan, 2020. – B.68.

¹⁴¹ Muhammad bin Mansur. Javharnoma. O'zR FASHI inv. №2294 /II raqamli qo'lyozma. - 206 b varaq.

Manbalarda yozilishicha, qimmatbaho toshlarning xalqaro bozorda ma'lum bir qiymati bo'lgan. Mazkur toshlarning narxi toshning sifati, navi, hajmi, vazni, shaffoflik va yarqiroqlik xususiyati, benuqsonligi hamda tosh orasida boshqa aralashmalarning, nuqta va teshiklarning bo'lmasligiga qarab belgilangan. Xalqaro bozorda sof oltin "dinor, tillo" kabi xalqaro valyuta bahosi mamlakat sarroflari tomondan qimmatbaho tosh sotilayotgan hududdagi pul birligiga qiymatini hisoblab sotilgan.

XULOSA

